

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

BOTIRJONOV SARVAR

Markaziy Osiyoda Islom madaniyati

**5120300 – tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta'lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY Ish

**Ish rahbari: tarix fanlari
nomzodi, dotsent D.Sobirova**

Andijon – 2017 yil

MARKAZIY OSIYODA ISLOM MADANIYATI

Reja:

Kirish

I. ARAB XALIFALIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSON

***II. IX-XII ASRLARDA ISLOM MADANIYATINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY
HAYOTIDA TUTGAN O'RNI***

III. MADANIYATNING RIVOJI VA MADANIY ALOQALAR

***IV.. ISLOM MADANIYATI VA SHARQ DUNYOSINING BUYUK
ALLOMALARI***

***V. MODDIY MADANIYATNING RAVNAQ TOPISHI : ME'MORCHILIK,
SAN'AT VA MUSIQA***

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib uning hayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi – muqaddas dinimizning xaqqoniyligi va pokligi insonparvarligi va bag'rikengligi odamzotni doimo ezgulikka chorlashi hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarini ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamoyati bilan bog'liq.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, muqaddas islom dinimizni pok saqlash uni turli xil g'arazli huruj va xatarlardan tuhmat va bo'xtonlardan himoya qilish uning mohiyatini unib o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri tushuntirish islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib kelmoqda.

Sof islom ma'rifatini xalqimizga ayniqsa yoshlarga to'g'ri yetkazish bugunning dolzarb mavzularidan biridir, avvalo islomga tarif beradigon bo'lsak :

Islom (arab. — bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) — jahonda keng tarqalgan uch dindan (buddizm va xristianlik bilan bir qatorda) biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "muslim" ("sadoqatli"; ko'pligi "muslimun") deb ataladi. "Muslim", "muslimun" so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (masalan, forslarda — musulmon, o'zbeklarda — musulmon, qirg'iz va qozoqlarda — musurmon, Ukraina va Rossiyada — basurman) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan. Jahonda qariyb 1,2 mlrd. kishi Islomgaga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qit'a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi — Islom dinining paydo bo'lishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb uqtiriladi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. shu xudo,

ya'ni Alloh odamlarga payg'ambar-elchilar yuborgan. Ammo insonlar paygg'mbarlar ta'limotini buzganlar. shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammad (sav)ni tanladi, unga o'zining kalomi — Qur'onni nozil qildi. Muhammad (sav) oldin o'z hamshaharlarini, so'ng barcha arablarni, ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona xudo — Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etdi. Qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, Islom batamom yangi e'tiqod emas, balki Ibrohimning qayta tiklangan dinidir. Islom dini tarixini o'rganishda o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olish kerak. Islom dini vujudga kelgan davrda Arabiston yarim orollarida Makka va Yasrib (Madina) kabi shahar-davlat (polis)lar boshqalarga nisbatan muayyan ustunlikka ega edilar. Bu shaharlar xalqaro savdoning eng yirik markazlaridan bo'lib, iqtisodiy hayot jo'shqin tus olgandi. shahar-davlatning kelajak taraqqiyoti uchun polis tuzumi torlik qila boshlagan. Hijoz (Makka, YAsrib, Xaybar, Dumat al-Jandal, Tayma va boshqalar) va umuman Arabistonni xalqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qodir harbiy kuchga ega bo'lgan yagona saltanatga aylantirish davr talabi bo'lib qolgan edi. Saltanat tuzish bilan bir katorda Arabiston yarim orollaridagi qabilalarning etnik va madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, og'zaki va yozma adabiyot, umumiy fikrlashning shakllanishi va nihoyat, arablarning diniy tafakkurida o'zgarish jarayonlari kechayotgan edi. Bunday harakatni boshqargan kishilar o'z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffaqiyatga erisha olardi. shunday qilib, Muhammadning diniy va siyosiy faoliyati yuqoridagi jarayonlarning xususiy ko'rinishi bo'lgan¹. Muhammad (sav) har tomonlama barkamol inson bo'lgani uchun, uning shaxsiy fazilatlari tufayli yahudiy, xristian mazhablariga yaqin g'oya bilan yashovchi mahalliy hijozliklar harakati o'ziga xos xususiyatlar kasb etdi, diniy va siyosiy kuchga ega bo'ldi; bu kuch Islomning vujudga kelishini eng muhim tarixiy voqealardan biriga aylantirdi.

¹ Hasanov A., Qadimgi Arabiston va ilk islom (1-kitob: Johiliya asri), T., 2001

Arablar yuksak madaniyat yaratganlar. Bu madaniyat tarixga Arab xalifaligi madaniyati nomi bilan kirdi. Xo'sh, buning sabablari nimalardan iborat edi?

Avvalo, Arab xalifaligida nisbatan tinch, osoyishta hayot ta' minlangan. Bu esa xo'jalik (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo - sotiq)ning yanada yuksalishiga imkon bergan. Bu omil o'z navbatida madaniyatning taraqqiy etishiga shart-sharoit yaratgan.

Ikkinchidan, istilo natijasida xalifalikka birlashtirilgan turli o'lka xalqlari (Suriya, Misr, Eron; O'rta Osiyo, Kavkazorti, shimoliy Hindiston)ning ilg'or madaniyati imkon qadar bir-birini boyitdi. Bu o'rinda yagona davlat tili - arab tilining ilm-fan tiliga aylanganligi katta rol o'ynagan. Buyuk allomalar qaysi xalq vakillari bo'lmasin, arab tilida ijod qilganlar. Bu omil xalifalik tarkibidagi turli xalqlarga bir-birining madaniyati yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratgan. Binobarin, xalifalik madaniyatini faqat arablar emas, xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar yaratganlar.

Uchinchidan, arablar ham o'zlari istilo etgan o'lka xalqlarining ilg'or madaniyati durdonalarini qunt bilan o'rganganlar.

To'rtinchidan, Mansur, Horun ar-Rashid, Ma'mun kabi abbosiy xalifalar ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilganlar. Bu omillar, shubhasiz, madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etishini ta'minlagan.

Bitiruv malakaviy ishnig maqsad va vazifalari. Bu mavzuning belgilab o'tilgan asrlar davomida Arab xalifaligidagi san'ati, madaniyati, ilm-fan rivoji masalalarini yoritishda quyidagicha vazifalarga bo'lib olindi:

1. Arab madaniyatining islomgacha bo'lgan joxliya davridagi xolati va axvloi xaqida atroflicha to'xtalib o'tish.
2. Arab xalifaligi davrida ilm-fan rivoji va tarqqiyot yo'lida bosib o'tgan qiyinchiliklarini va yutuqlarini etarlicha ma'lumot berish.
3. Arab xalifaligi davrida san'at va madaniyat tarqqiyoti bo'lganligi to'g'risida ma'lumot berish.

4. Barcha masalalarni mujassamlashtirgan holda xulosalash va mantiqiy yakun yasash.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Avvalam bor bu mavzuning aynan arab xalifaligining san'at va madaniyat jabhada kam darajada o'rganilganligi, deyarli o'zbek tilida bu mavzuga oid manbaa va ma'lumotlarning kamligi sababli, aksariyat ruscha ilmiy adabiyot, davriy matbuot va internet tarmoqlaridan olingan fikrlarni yangi ma'lumot sifatida kiritdik.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi materiallaridan maktab, akademik litsey va kasb - hunar kollejlarda tashkil etilgan to'garaklarda fakultativ darslarda, oliy o'quv yurtlarda, O'zbekiston tarixidan seminar mashg'ulotlari o'tkazishda foydalanish mumkin.

I. ARAB XALIFALIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSON

XV—XVII asrlar jahon tarixida Renessans yoki Uygʻonish davri nomi bilan mashhurdir. Bu davrda Evropa mamlakatlarida birin-ketin madaniy yuksalish koʻzga tashlanadi. Bu madaniy yuksalish, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar bilan, jamiyat hayotida shaharlarning, shahar madaniyatining, hunarmandchilik ishlab-chiqarishining rivoj topishi bilan uzviy bogʻliq edi. Renessans madaniyati birinchi boʻlib Italiyada boshlandi. Maʼlumki, Italiya oʻsha davrda Oʻrta dengizda, temir yoʻl va havo yoʻllari boʻlmagan bir davrda, suv yoʻli orqali savdo-sotiqni rivojlantirish, boshqa mamlakatlar bilan turli iqtisodiy-madaniy aloqalarni avj oldirishda markaziy oʻrinlardan birini egallardi.

Italiya suv yoʻli orqali bevosita rivoj topgan sharq davlatlari, xususan, arab davlatlari bilan yaqindan aloqada boʻlishga intildi. IX—XII asrlarda YAqin va Oʻrta sharq xalqlari, musulmon sharqi madaniyatining yuqori choʻqqiga koʻtarilgani tarixdan maʼlum. Italiyaning bu davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari Evropada Renessans madaniyatining vujudga kelishida muhim rol oʻynagan.

Italiyaning sharqiy qoʻshnisi boʻlgan Ispaniyada esa musulmon madaniyatini bevosita rivoj ettirgan arab davlati—Qordova xalifaligi deyarli XV asrlarga qadar davom etdi. Bular hammasi Italiyada boshlangan Renessans, Uygʻonish madaniyati shakllanishida IX—XII asrlarda YAqin va Oʻrta sharq mamlakatlarida vujudga kelgan arab tilidagi madaniyat, sharq Uygʻonish davri madaniyati, fani bilan uzviy bogʻliqligini koʻrsatadi.

XII—XIV asrlarda Italiyada Muhammad Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Marvoziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi mashhur sharq olimlarining asarlari lotin tiliga tarjima etildi, arab ilmiy yutuqlarini oʻrganishga intilish kuchaydi. Bu asarlar Evropaga keng tarqaldi va Renessans madaniyatining muhim qismiga aylandi.

YAqin va Oʻrta sharq Uygʻonish madaniyatining shakllanishida Oʻrta Osiyo madaniy anʼanalari katta ahamiyat kasb etadi.

YAqin va Oʻrta sharqda islom dinining tarqalishi YAqin sharqda arab xalifaligining shakllanishi va rivoji bilan uzviy bogʻliqdir. Bu xalifalik islom bayrogʻi ostida asta-sekin Arabiston chegarasidan chiqib, Oʻrta sharq tomon yurish

boshlab, u erdagi mamlakatlarni bosib ola boshladi. Bu jarayon islomni tarqatish bilan uzviy bog‘liq holda olib borildi. VIII asr oxiri — IX asrning o‘rtalariga kelib arab xalifaligi sharqda eng kuchli rivoj topgan imperiyaga aylandi. Xususan xaliflar Mansur, Xorun ar-Rashid, Ma‘mun davrlarida xalifalikning markaziy shaharlari, xususan. Bag‘dod iqtisodiy va madaniy jihatdan eng rivoj topgan shaharlardan biriga aylandi. Madaniyat, ilm-fan taraqqiy etdi. Bu erda turli ilmiy, diniy muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo‘ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko‘chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblar o‘g‘irish avj oldi, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish isuchaydi. Bu jihatdan, ayniqsa, Xorun ar-Rashid va Ma‘mun davri muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda birinchi akademiya — «Donolik uyi» tashkil topdi va bu erda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi, arab xalifasi Ma‘mun uning rivojiga maxsus mablag‘ ajratib turdi.

Akademiya — «Donolik uyi»da xalifalikning turli o‘lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind» yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar. Uning faoliyatida O‘rta Osiyodan borgan olimlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Bu davr madaniyati adabiyotlarda YAqin sharqda Uyg‘onish davri madaniyati sifatida talqin etiladi. Haqiqatda ham bu davrdagi YAqin sharqdagi arab tilidagi madaniyat o‘z mazmuni, yo‘nalishi, yutuqlari bilan Uyg‘onish davri madaniy yuksalishini o‘zida ifoda etdi. Uyronish davri madaniyati boshqa o‘lkalardagi so‘nggi madaniy yuksalishga katta ta’sir ko‘rsatdi.

O‘rta Osiyoda Uyg‘onish davri. Ma‘lumki, VIII asrlarda O‘rta Osiyo YAqin sharqda yangi vujudga kelgan arab davlati — xalifalik tomonidan istilo etildi. Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay erli xalq bosqinchilarga qaram bo‘lib qoldi. Buyuq olim Beruniy va tarixshunos Narshaxiy tafsiricha bosqinchilar erli xalqlarga ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan katta zarar keltirdi — erli hokimiyat tugatildi, shaharlar, qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo‘q qilindi, kitoblar yondirib yuborildi, arxitektura, san‘at namunalari barbod bo‘ldi. Ilm-ma‘naviyat fidoyilari qurbon etildi va hokazo, Xalq xalifalikka, yangi dinga qaram

qilindi. Ma'naviy norozilik kuchaya bordi, xalq mustaqillikni tiklash uchun kurashga qo'zg'aldi. VIII—IX asrlarda Abu Muslim, shariq ibn shayx, Sumbatmag, Muqanna boshchiligida xalq qo'zg'o-lonlari bo'lib o'tdi. Ular bosqinchilarga qarshi hurlik, ozodlik uchun kurashdilar.

Xalqning mustaqillik uchun kurashi natijasida IX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda erli Somoniylar davlati vujudga keldi, bu — arab xalifaligiga qaramlikdan qutulish, mustaqillikni qo'lga kiritish edi. Lekin boy-feodallar, qabila boshliqlari o'rtasida ahillik, birlik, kelishuvning yo'qligi tufayli o'zaro nizo, kurashlar avj oldi, 3—4 asr davomida Somoniylardan tashqari yana Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar va boshqa davlatlar vujudga keldi, ular uzoq umr ko'rmay yo'q bo'lib ketdi. Lekin shu bilan birga YAqin va O'rta sharqda yangi shakllangan musulmon o'lkalari o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar avj oldi. Madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi. Qadimgi hind, eron, arab, yunon madaniy boyliklari qorishib, adabiyotlarda «musulmon madaniyati» deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi.

Qadimgi madaniyat an'alariga nihoyatda boy bo'lgan O'rta Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida o'z madaniyatini yuksaklikka ko'tara oldi. shaharlar, shahar madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarining kuchayishi samarasi bo'lgan Uyg'onish, Renessans shu davrda boshlandi, O'rta Osiyo ilm-fan, ma'naviyat, tarixda misli ko'rilmagan namunalar yaratdi.

Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Buxoriy, Ahmad YUgnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining qoyalari, cho'qqilaridir. Hattoki arab xalifasi Ma'mun O'rta Osiyo olimlarini xalifalikning markaziga olib ketgani va ular Bag'dod akademiyasining ko'rki bo'lib, ilm uchun xizmat qilganliklari tarixdan ma'lum, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Javhariy, ibn Mansur Marvarudiy kabi olimlar shular jumlasidandir. O'rta Osiyoning buyuk o'g'lonlari nomi dunyo madaniyati sahifaspda oltin satrlar bilan yozib qoldirilgan. Sotsial utopiya shu davrda shakllandi: Forobiy asarlaridagi etuk, yuksak jamoa va komil insonlar haqidagi fikr-xayollar shu davr mahsulotidir. O'rta Osiyoda bu davrda uch tilda: arab, fors, turkiy

tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarga muhrlanib, sharqning turli burchaklarigacha etib bordi. Bu davr madaniyati o'zining kuchli gumanistik ruhi, insonparvarlik nafasi, odamlarni o'zaro do'stlikka chaqirishi, aqlni e'zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlar yuksakligiga ko'tarila oldi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida Uyg'onish, birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviylik - mustaqillikning samarasi bo'ldi.

XIII asrning 20-yillarida O'rta Osiyo xalqi sharqda, Mo'g'ulistonda shakllangan Chingizxon davlatining beayov xurujiga uchradi. 2—3 yil davomida O'rta Osiyo, Movarounnahr va Xuroson bosib olindi, yana shaharlar vayron, turli madaniy binolar, yo'llar, bog'u ro'g'lar barbod bo'ldi, kitoblar yondirildi, xalq endi chingiziylar qaramligiga tushdi, lekin bu qaramlik va huquqsizlik uzoqqa cho'zilmadi. Yana mustaqillik uchun kurash boshlandi. Movarounnahr va Xurosonda Mo'g'ul hukmronligi borgan sari kuchliroq zarbaga uchrai bordi, Samarqandda mustaqil sardorlar davlati vujudga keldi.

XIV asrning 60-yillaridan boshlab mo'g'ullar hukmronligiga qarshi Amir Temur etakchiligidagi mustaqillik uchun harakat Movarounnahr va Xurosonda kuchli davlatning vujudga kelishi bilan yakunlandi. Bir asrdan sal ko'proq davom etgan bu mustaqil davlat yana ilm-fan, adabiyot-san'atning yuksalishiga imkoniyat yaratdi. Mustaqil bo'lgan xalq yana erkin nafas olib o'z ichidagi yangi iste'dodlarga shijoat, yangi kuch ilhom baxsh etdi. Bu X—XII asrdagi dushman xuruji natijasida uzib qo'yilgan Uyg'onishning tiklanish, ma'naviy ravnaqning ikkinchi bosqichi edi. Bo'g'ib qo'yilgan madaniy qudrat, ma'naviy kuch yana qo'zg'aldi... Boshqacha bir tarixiy sharoitda bu kuch o'z davriga mos holda ajoyib rang-barang madaniy yutuqlar, ma'naviy boyliklar bilan XV asr sahifasini bezatdi, umi tarixda unutilmas jilo, rang, yutuqlar bilan boyitdi. O'z davri ma'naviy yutuqlarining turli qirralarini faoliyatlari ijodlarida yorqin ifodalagan Ali Qushchi, Qoshiy, Lutfiy, Jurjoniy, Taftazoniy, Davoniy, Koshifiy, Behzod, Jomiy, Xo'ja Ahrar kabi olim, fozil ijodkorlar shu davr mahsulidir. Mirzo Ulurbek, Alisher Navoiy bu madaniy ko'tarinkilik cho'qqilaridir. Masalan, Navoiy mutafakkir shoir, olim, ma'rifatchi

edi. Uning uzoq yillar davomida temuriy shohlaridan Husayn Boyqaro saroyida dono maslahatchi, vazirlik faoliyati hokimiyatni ma'rifat yo'liga yo'llab turishda, Uyg'onish madaniyatini ta'minlashda nihoyat muhim ahamiyat kasb etdi. Uning bevosita ta'biri, ishtiroki bilan 200 dan ortiq madaniyat muassasalari qurilgani ma'lum.

Bu davrdan asosan ikki tilda: fors va turkiy tillarda ijod etilgan. Ilg'or mutafakkirlar Jomiy, Navoiy ijodlarida ham etuk jamoa, komil inson, yuksak axloqiy munosabatlar haqidagi sotsial utopiya o'ziga xos tarzda yanada tiklanib, rivojlantirilgan. Mustakillik madaniy uyg'onishni tiklagan, yanada yuksaltirgan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil bo'lib mamlakat boshqa qo'shni o'lkalar, boshqa madaniyat markazlaridan ajrab qolmagan, aksincha, qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari tenglik asosida yanada rivoj topgan.

Uyg'onish madaniyati O'rta asrlarda sharqda boshlangan, u G'arbgga katta ta'sir ko'rsatib, so'ng Evropaga ko'chgan.

Mustaqillik birlik, o'zaro inoqlik va bir maqsad yo'lida kurashuv natijasida qo'lga kiritilishi hamda saqlab qolinishi mumkinligi tarixda bir necha bor psbotlangan. Mustaqillik ilm-fan, ma'rifatga tayansagina, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda yuksak yutuqlarga erishish mumkin. Tarixda dono shohlar, hokimlar ham o'z saroyiga ilmu fozillarni, ziyolilarni to'plaganlar, ularga imton tug'dirib, kuch-g'ayratlarini mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirganlar.

Mustaqillik, bu - ma'naviy xudbinlik, quruk kekkayish, maqtanchoqlik emas, bu - og'ir mehnatni, xalqni farovonlik yo'lida olib borishga qaratilgan majburiyat va safarbarlikni, g'ururni nazarda tutadi.

Mustaqillik, bu boshqa o'lkalarning ham mustaqil ma'naviyatini izzat-hurmat etishni, ular bilan madaniy va boshqa aloqalarni kengaytirishni, ulardan o'rganish va bor bilganini baham ko'rishni ko'zda tutadi.

Bu ayniqsa.biz uchun hozirda muhimdir. Xorazmshohlar saroyida turli o'lkalardan kelgan turkiy, eroniy, hind, xitoylik madaniyat vakillari ijod etishgan. Ular uchun yo'l har doim ochiq bo'lgan. Madaniy aloqalar, madaniyatlarning o'zaro ta'siri, umuman madaniy yuksalish uyg'onishning muhim omillaridandir.

Mustaqillik ijodiy aql, fikrning rivojiga qancha keng imkon yarata olsa, uning mustahkamlanishi uchun yo‘l-yo‘riq, vositalar ham shuncha ko‘p va rang-barang bo‘lib vujudga- kelishini o‘tmish tarix saboqlari ko‘rsatdi. Forobiyning dono rahbar yoqi rahbarlar boshchiligida fozil jamoa, komil inson, o‘zaro yordam asosida yashovchi xalqlar haqidagi xayollari, Jomiy, Navoiy-larning adolat hukmron bo‘lgan o‘lkalar, cheksiz insoniylik va yuksak axloq-odob haqidagi o‘ylari shunday mustaqillikda tug‘ilgan va, avvalo, mustaqillikni nazarda tutadi. Hozirda umuminsoniyat manfaati tarixning birinchi sahifasidan o‘rin olayotgan bir davrda mustaqillik, ilm-ma’rifatni e’zozlash, insonga muhabbat, o‘zaro ahillik va ma’naviy yuksalishning qimmatini yanada kuchayib bormoqda.

Mustaqillik va uyg‘onish, mustaqillik va yuksalish uzviy bog‘liqdir, u bizdan aql-idrokni, bilimni, iste’dodu qobiliyatni, faollikni, kuch-g‘ayratni talab etadi.

II. IX-XII ASRLARDA ISLOM MADANIYATINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

O‘rta Osiyo VIII asr boshlarida arablar istilosiga uchradi, bu voqea yangi islom dinining tarqatilishi bilan bog‘liq edi. Lekin arablar O‘rta Osiyoda qattiq

qarshilikka uchradilar, chunki ular bu erda madaniy va iqtisodiy jihatdan ancha yuksak rivoj topgan xalqlarga duch keldilar.

V—VII asrlarda Oʻrta Osiyo siyosiy-iqtisodiy, maʼnaviy hayotida oldingi davrga qaraganda juda katta, ulkan oʻzgarishlar boʻlib oʻtdi. Qatta hududni oʻziga boʻysundirgan Kushon imperiyasi qulab, shimoldan kelgan xunnlarning bir tarmogʻi boʻlmish eyfalitlar Oʻrta Osiyoni oʻzlariga boʻysundirdilar va Eron — somoniylarga qarshi kurash olib bordilar. Lekin koʻchmanchi eyfalitlar oʻtroq va madaniy jihatdan yuqori boʻlgan Oʻrta Osiyo xalqlari hayotiga keskin oʻzgarish kiritish olmadilar. Bu davrda boshqarish, savdo-sotiq ishlari erli hukmdorlar qoʻlida saqlanib qoldi, ular eyfalitlarga soliq toʻlab, ularning umumiy hukmdorligi ostida mustaqil faoliyatda boʻldilar.

Eyfalitlar hokimiyati ham uzoq davom etmay, turk xoqonligi tomonidan surib tashlandi. Ikki daryo oraligʻi — Movarounnahr oʻz hokimiyatini Eron va Xitoygacha kengaytirgan turk xoqonligiga boʻysundirdi. Tashqaridan kelgan bosqinchilarning xurujlari erli xalq va hukmdorlarning hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy turmushi rivojiga muhim taʼsir koʻrsata olmadi. Shu bilan birga erli xalqning bu bosqinchilarga qarshi kurashi ijtimoiy taraqqiyotni, iqtisodiy munosabatlarning feodallashtirishini tezlashtirdi.

Erli xalqning asrlar davomida rivojlanib, maʼlum anʼanalar yaratgan madaniyati tashqaridan kelgan turli bosqinchilarning maʼnaviy taʼsirini oʻziga singdirib yubordi. Turgʻunlikka tushib qolgan madaniy hayotda siyosiy oʻzgarish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishi natijasida VI-VII asrlarga kelib, Oʻrta Osiyo arablar istilosi va islomning kirib kelishi arafasida anchagina jonlanishga yuz tutdi. Savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar tiklana boshladi, madaniyat markazi boʻlmish yangi shaharlar vujudga kela boshladi. Qishloq xoʻjaligida ham koʻtarilish yuz berdi, sugʻorish kanallari tartibga solindi, shahar va qishloqlarda hunarmandchilik rivojlandi, toʻqimachilik, qimmatli metallardan nafis buyumlar yasash, oʻymakorlik, devorga rasmlar chizish, boy arxitekturaga ega boʻlgan hashamatli binolar qurish, ganchkorlik, harbiy anjomlar yasash keng avj oldi. Bu davrda soʻgʻd, turkiy va xorazm yozuvlarining tarqalganligi, bu yozuvlarda turli

afsonaviy asarlar yozilganligi ma'lum. Bolalarga 5 yoshdan boshlab ma'lumot bera borilishi, ularni turli hunarlarga o'rgatilgani manbalarda ko'rsatiladi.

XII asr muallifi Ibn Mansur Marvarudiy «Tarixi muborak shoh» asarida shunday yozadi (bu muallif O'rta Osiyodan, Marvarud qishlog'idan): «Turklarda (oliy) martabalar va darajalar bo'lmasada, ular shunday maqtovga sazovorli shuhratga egadirlarki, musulmon hokimlarining qudrati Olloh yordamida (faqat) turklar tufaylidir. shu sababli Turkistondagi turklar boshqa xalqlarga nisbatan ustunlikka egadirlar...

Bu maqtovga sazovor xulqlaridan tashqari yana turklar boshqa xalqlarga nisbatan qator ustunlikka egadirlar. Bulardan biri shundaki, hech qaysi mamlakat kattaligi, kengligi jihatidan Turkistonga teng kela olmaydi...

Turkistonda ishlab chiqariladigan va boshqa mamlakatlarga olib borilib katta narxlarga sotiladigan mollar ajoyibdir, ular juda ko'p: tatar, tibet, xoton muskuslari, xitoy va chiniy deb ataluvchi qimmatbaho kiyimlar, yuqori sifatli qizil turk yoquti, turli mo'ynalar... dunyoda tengi yo'q toza otlar, tezyurar tuilar va hokazo.

So'g'dning pastki qismida tog' bor. Unda kumush, oltin, zumrad konlari mavjud... U erda temir, qo'rg'oshin, simob, sof nashatir va kuparis konlari ham bor, ularni boshqa mamlakatlarga olib chiqiladi...

(Turkiston) xalqlarini boshqalardan ajratib turuvchi yana boshqa ayrim narsalari mavjud. shulardan biri turk tili bo'lib, bu til arab tilidan keyingi eng yaxshi va ta'sirli tillardandir. Hozirda odamlarning turk tilini o'rganishga intilishining sababi shundaki, avvalgi zamonlarda amir va Xarbin boshliqlarnng ko'p qismi turklardan bo'lgan, hokimiyat ular qo'lida bo'lgan; har qanday foydali narsalar, oltin, kumushlar ham ularning qo'lida edi...; zodagonlar, amaldorlardan chiqqanlar va ularning o'g'illari turklar xizmatida bo'lgan. YAna, turklarda yozuv bo'lgan: ular osmon jismlari va uning sirlarini bilganlar; bolalarni savodga o'qitganlar. Ularda ikki xil yozuv bo'lgan: so'g'd va toguzgus yozuvi. So'g'd yozuvida pigirma beshga yaqin harf bo'lgan va uch harf «zod», «za» va «g'ayn» bo'lmagai; o'ngdan so'lga yozilgan, harflar bir-biri bilan qo'shilmagan... Toguzgue yozuvi...

yigirma sakkiz harfdan tashkil topgan; o'ngdan so'lga yozilgan va ular bir-biri bilan qo'shilmagan. Turklar she'r yozishni — qasida, ruboiylarni bilganlar.

Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, bu davrda Samarqandda dunyoviy masalalarni hal etish uchun foydalaniladigan yozma qonunlar to'plami mavjud bo'lgan va unda tartibni saqlash, nizolarni hal etish ishlariga katta e'tibor berilgan. Bu davrda O'rta Osiyoda olovga sig'inish bilan birga buddizm, manixeychilik, zardushtiylik, nestorianlik dinlarining ta'siri kuchaygan, turli ibodatxonalar mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoning ko'p shaharlaridan o'tgan va G'arb bilan sharq mamlakatlarini bog'lovchi «Ipak yo'li» erli so'g'd na turkiy xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati rivojida muhim rol o'ynadi.

VII asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy va madaniy hayotda muhim burilishga olib kelgan katta tarixiy o'zgarishlar ro'y berdiki, uning so'nggi taraqqiyot uchun ahamiyati katta bo'ldi.

Bu tarixiy o'zgarish avvalo Arab yarim orolida vujudga kelgan olamshumul to'ntarishlar bilan bog'liq. Arabistonda turli xalqlar tarqoq holda ko'chmanchilik bilan kun kechirganlar, mavjud erlarning bir qismigina dehqonchilik uchun yaroqli bo'lgan va u erlarda ular bog'dorchlik, hunarmandchilik, savdo bilan shug'ullanganlar. Boshlang'ich, qabilachilik jamoa tuzumining emirilib bornshi, mulkiy tengsizlikning kuchayishi ijtimoiy ziddiyatning avj olishiga olib kelgan. Qabilalar o'z xudolariga, ibodatxonalariga ega bo'lganlar. Bu ham ularning ma'naviy tarqoq bo'lishiga sabab bo'lgan. Xuddi shunday sharoitda barcha arab qabilalarini birlashtirishga qaratilgan islom dini vujudga kelgan.

Islomning vujudga kelishi, musulmon diniy aqidalarining shakllanishi Makka shaharida tug'ilib o'sgan Muhammad (570-632) ismli shaxs nomi bilan bog'liqdir. Muhammad 610 yildan boshlab o'z diniy targ'ibotini boshlagan, barcha arablarni qabilasi, jinsi, ijtimoiy mavqei, iqtisodiy ahvolidan qat'i nazar yagona xudoga - Ollohga sig'inish va bo'ysunishga targ'ib qilgan va o'zini xudoning erdagi vakili - «Payg'ambar» deb e'lon qilgan.

Xudo nomidan Muhammad payg'ambar tomonidan aytilgan islomning asosiy aqidalari, axloqiy va huquqiy normalari undan so'ng yozilgan «Qur'on»ga kiritilgan

va bu kitob ,musulmonlarning muqaddas kitobi hisoblanadi. Qur'ondan so'nggi ikkinchi muqaddas kitob «Hadis»dir, u Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati, aytgan ko'rsatmalari, qilgan ishlari, suhbatlari haqidagi turli ma'lumot va rivoyatlari to'plamidan iborat. Hadis Qur'ondan so'ng qog'ozga tushirilgan. Davrlar o'tishi bilan hadislar to'planib, tartibga solina boshlangan. X asrlarga kelib obro'li va ishonarli deb tanilgan hadislarining 6 ta to'plami vujudga kelgan, hadislarini yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchilar «muhaddis» deb atalgan, hadislar to'plami esa sunna nomini olgan.

Qur'on va Hadis musulmon ilohiyoti, dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, huquqi kabilarning asosi hisoblanadi. Ularda din ilohiyot diniy e'tiqod masalalari bilan birga o'z davrining axloqiy va siyosiy an'analari, insonparvarligi, insonlarni qovushtiruvchi, ular o'rtasidagi ziddiyat, nizoldriing oldini oluvchi, adolat o'rnatishga qaratilgan axloqiy fikrlar ham keng o'rin olgan. Muhammad payg'ambar yakka xudoni hammaning yagona maqsadga bo'ysunishini targ'ib qilish bilan birga o'z davridagi tengsizliklarga, qabilalar o'rtasidagi kurashlar, quldorlik, insonni xo'rlashlarga qarshi chiqdi; rahm-shafqatli bo'lishga undadi, oldingi dinlarga, inson e'tiqodlariga xurmat bilan qarashga chaqirdi. Bularning hammasi Muhammadning obro'-e'tibor qozonishiga olib keldi. shunday qilib, Arabistonda VII asrlarda islom dini bayrog'i ostida arab davlati vujudga keldi. Bu davlat boshliqlari xalifa» davlatning o'zi xalifalik deb atala boshlandi. Arab qabilalarining birlashgan kuchi — arab davlati tez orada qo'shni davlatlarga tazyiq qilib, ularni qurol kuchi bilan bosib ola boshladi. Yangi din - mafkura bilan qurollangan va bu mafkuraning haqligiga cheksiz ishongan arab askarlari islomni o'rnatish yo'lida Olloh uchun muqaddas urush olib borib tez orada Suriya, Misr, Eron kabi mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdilar va asta-sekin O'rta Osiyoga ham qarshi kurash olib bordilar. Lekin bevosita arablar istilosi arafasida O'rta Osiyo mayda va tarqoq feodalliklardan iborat edi. Farg'ona, shosh, So'g'd, Xorazm, CHag'oniyon, Xuttal kabi nisbatan yirik er egaliklari bilan bir qatorda mayda davlatlar ham ko'p bo'lib, ular o'rtasida birlik yo'q, siyosiy tarqoqlik mavjud edi. Xitoyga qarshi urushda zaiflashib qolgan G'arbiy Turk xoqonligi esa o'z ahamiyatini va ta'sirini yo'qotgan

edi. Bularning hammasi O'rta Osiyoni, Movarounnahr va Xurosonni arablar tomonidan bosib olinishini tezlashtirdi.

VII asr o'rtalarida Eronning markaziy qismi arablar tomonidan zabt etiladi. 651 yilda Marv shaxari bosib olinadi va arablar bilan janglarda bu erga chekingan so'nggi sasoniy podshosi Yazdigard III qurbon bo'ladi. Marv arablar uchun O'rta Osiyoni bosib olishda muhim darvoza bo'lib xizmat qilgan. VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar O'rta Osiyo erlari, ayniqsa, Samarqand, Buxoro erlariga hujum qila boshlaganlar.

704 yili Xuroson noibligi va O'rta Osiyoni bo'ysundirish Qutayba ibn Muslimga topshiriladi. Qutayba O'rta Osiyoda o'sha davrda vujudga kelgan sharoitdan ustalik bilan foydalanib ham qurol, ham xiyla-nayrang, ham diplomatiyani ishlatgan holda birin-ketin feodal davlatlar va shaharlarni o'ziga karata boradi. Erli hokimlar va xalqdan bir necha bor zarbalarga uchrashiga qaramay izchillik va qat'iylilik bilan O'rta Osiyoni bosib olishni davom ettiradi. Bu yo'lda u ayniqsa So'g'd hokimiyati va turklarning o'z nizolaridan ustalik bilan foydalanadi. Buxoro va Samarqandda qaqshatqich zarbaga uchragan bo'lsa-da, yangidan askar to'plab o'z raqiblarini qismlarga parchalab, birin-ketin turli usullarni ishlatgan holda 10-15 yil davomida Xorazm, Farg'ona, shosh, Ustrushona, Samarqand, Buxoroni o'ziga qaratadi va Qoshg'ar chegarasigacha etib boradi.

Arablar 706 yili Paykandni, 709 yili Buxoroni, 712 yili Xorazm va Samarqandni, 715 yili Farg'onani o'zlariga qaram qiladilar. VIII asrning 30-yillariga kelib Movarounnahrning deyarli barcha erlari arablarga bo'ysundiriladi. 715 yili Qutayba yo'llarda qiynalgan o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi, so'ng arab askarlari Xurosonga qaytishga majbur bo'ladilar. Erli xalqlarning arab bosqinchiligiga qarshi harakati, xalq qo'zg'olonlari uzoq vaqt davom etdi. Haris ibn Surayj (30-yillar), Abu Muslim (40-yillar), Muqanna (70-80-yillar), Hamza al-Xarij (VIII—IX asrlar), Rafi ibn Lays (IX asr boshlari) kabilar boshchiligidagi mustaqillik uchun olib borilgan harakatlar shular jumlasidandir.

Qutayba ibn Muslimning harbiy yurishlari O'rta Osiyoni arablar tomonidan zabt etilib, arab xalifaligiga bo'ysundirilishida, O'rta Osiyo xalqlari orasida islom dinini tarqatishda muhim rol o'ynadi.

Arablarining bosqinchiligi raqiblarni o'ldirish, qarshilik ko'rsatganlarni qirib tashlash, madaniyat boyliklarini talon-toroj qilish, zo'ravonlik o'tkazish, erli aholiga katta soliqlar solish kabilar bilan uzviy bog'liq holda olib borildi.

Ilk O'rta asr tarixchisi Narshaxiy «Buxoro tarixi» kitobida shunday yozadi: «Buxoro aholisi har safar (islom lashkari kelganida) musulmon bo'lar, arablar qaytib ketganida esa ular yana dindan qaytar edilar. Qutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana dindan qaytib kofir bo'lar edilar. Bu to'rtinchi marta (kelganida) Qutayba jang qilib Buxoro shahrini oldi, ko'p qiyinchiliklardan keyin (bu erda) islom dinini o'rnatdi va har turli yo'llar bilan buxoroliklarga qiyinchiliklar tug'dirib, dillariga musulmonchilikni singdirdi. Ular esa islom dinini yuzaki qabul etib, haqiqatda butparastlik qilar edilar. Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga turib, ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisidan o'z uylarining yarmini arablarga berishni talab etib, buyruq chiqardi va shu yo'l bilan u musulmonchilikni o'rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga ularni majbur etdi. Qutayba masjidlar bino qildi, kofirlik va otashparastlikka oid asarlarni yo'qotdi. U ko'p jiddya^jayl ktiib, har kimdan shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo'lsa, uni jazolar edi».

O'rta osiyolik mashhur mutafakkir Beruniyning (X asr) yozishicha, Qutayba va boshqa arab hukmdorlari mahalliy din, san'at, adabiyot namoyandalarini, olimlarni o'ldirganlar, ularning asarlarini, madaniyat bonliklarini yondirib, mahalliy yozuvni, turli hujjatlarni yo'q qilib yuborganlar: «Qutayba Xorazm xashi yaxshi bilgan, ularning xabar va rivoyatlarini; o'rgangan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi».

Qutayba erli xalk.ning diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklarni yo'qotishga harakat qilgan va islomni xalq o'rtasiga olib kirish, uni targ'ib etish yo'lida barcha imkoniyatlarni ishga solgan. Islomni qabul etganlarni soliqlardan

ozod etgan, turli imtiyozlar yaratgan. Moddiy jihatdan ragʻbatlantirgan, machitlar qurdirgan, xullas harbiy yurishlari bilan birga gʻoyaviy-siyosiy ishlarii ham olib borgan. Erli xalqni har tomonlama: ham iqtisodiy, ham gʻoyaviy-maʼnaviy jihatdan arab xalifaligiga qaram qilish yoʻlida faol harakat qilgan. Oʻrta Osiyoning bosib olinishi, majburan islomning singdirilishi, zulm va xoʻrlklar erli xalqning keskin noroziligiga sabab boʻlgan.

Islom arab xalifaligiga boʻysundirilgan mamlakatlarning maʼnaviy hayotiga katta taʼsir koʻrsatdi. U faqat diniy aqidalar sistemasi sifatidagina emas, balki dunyoqarash, maʼnaviy madaniyatning muhim yoʻnalishi sifatida turli sohalarni ham oʻziga boʻysundira bordi.

shuning uchun ham koʻp adabiyotlarda islom dini tarqalgan va hukmron dinga aylangan oʻlkalar madaniyati yaxlit holda «islom madaniyati» deb yuritiladi. Islom kelib chiqqandan soʻnggi 3-4 asr davomida u tarqalgan mamlakatlarning madaniyati taʼsirida bu yangi diniy-gʻoyaviy tizim ichida turli oqimlar, taʼlimot, yoʻnalish-lar vujudga keldi. Bu oqimlar umumiy islom dini prinsiplarini eʼtirof etgan holda kator sohalar, aqidalar talqinida bir-biridan tafovut qilar edi. Ular oʻrtasida vujudga kelgan ziddnyat va kurashlar musulmon mamlakatlari maʼnaviy hayotini murakkablashtirib yubordi. Islomdagi demokrati oqimni ifodalovchi xorijiy harakati vujudga keldi. U mayda guruhlariga boʻlinib, soʻngroq diniy aqidalarni eʼtirof etishda bir-biridan farq etuvchi shialar va sunniylar yoʻnalishi shakllandi. Mehnatkash xalqning adolat uchun kurashi jarayonida sektantlik harakati vujudga kelib, islomda u ismoilizm va karmatlik yoʻnalishn shaklida oʻz nfodasini topdi.

Ismoilizm va karmatlar islomda hurfikrlilik va demokratiya uchun kurashnpg koʻrinishlaridan biri edi. Karmatlarning tenglik, oʻzaro yordam kabi fikrlarini atoqli mutafakkir, shoirlar Rudakiy, Nosir Xisrav, al-Maariy, Abu Ali ibn Sino kabilar himoya qildilar, shuningdek, ayrim aqidalarni, xususan, iroda erkinligi, taqdnr, inson faoliyatining maqsadlari kabi masalalarni talqin etishda mutazilliyar va mutakallimlar yoʻnalishi tashkil topib ular oʻrtasidagi kurash koʻp olim. mutafakkirlor dunyoqarashiga katta taʼsir koʻrsatd?. Islom bilan uzviy bogʻliq holda vujudga kelgan va uusulmoi mamlakatlarida keng tarqalgan gʻoyaviy oqimlardan

biri tasavvuf-so'fizm bo'ldi. Buoqimlar O'rta Osiyo xalqlari ilk o'rta asr madaniyatida ham o'zining yorqin ifodasini topdi. Bu oqimlarning shakllanishi va rivojida o'rtaosiyolik olimlar ham faol ishtirok etdilar.

Islom madaniyati adabiyot, san'at, fan, falsafa, axloq, urf-odat, ta'lim-tarbiya kabilarning barchasiga o'z ta'siripi ko'rsatdi. Islom juda katta muzofotdagi xalqlar madaniy boyliklari, an'analarning o'zaro ta'sirini ham kuchaytirib yubordi.

O'rta Osiyo xalqlarining boy madaniy an'analari nafaqat bu erdagi, balki boshqa muzofotlardagi musulmon madaniyati rivojiga xam katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyo xalqlariking arablarga qarshi olib borgan uzluksiz kurashi IX asrning oxirlariga kelib Xuroson va Movarounnahrda mustaqil feodal davlatlarining shakllanishi bilan yakunlandi. Bu katta hududda IX—XI asrlar davomida Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi, lekin shu bilan birga ular o'rtasida o'zaro kurashlar xam avj oldi.

Bu erda davlatlarning shakllanishida arab xalifaligida taxt uchun olib borilgan turli nizolar, o'zaro kurashlar, islomda vujudga kelgan turli oqimlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham ma'lum rol o'ynadi.

Xalifa Xorun ar-Rashid 809 yili vafot etdi, u Xuroson hokimi, Marvda istiqomat qilayotan o'z o'g'li Ma'munni xalifalikka merosxo'r qilib qoldirdi. Lekin Ma'mun bilan uning akasi Amin o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketdi. Ma'mun 813 yilda Movarounnahr va Xuroson feodallari yordamida xalifalik taxtini egalladi va so'ng 818 yilni Bag'dodga ko'chdi. Erli feodallardan YAh'yo, Axmad va boshqa somoniylarni Mavarounnahrda hokim qilib tayinladi, ayrim feodallarni, o'z atrofidagi olimu fozillar, hunarmandlarni o'zi bilan Bag'dodga olib qetdi. Xurosonda esa hokimiyat tepasiga Tohiriylar sulolasi chiqdi. Ular o'zlarini xalifalikka tobe deb atasalarda, mustaqil siyosat olib bordilar.

shunday qilib, IX asrga kelib O'rta Osiyo va Xurosonda siyosiy-ijtimoiy vaziyat o'zgardi, u xalifalik-dan ozod bo'lib mustaqil rivojlanish yo'liga kirdi.

III. MADANIYATNING RIVOJI VA MADANIY ALOQALAR

O'rta Osiyoning Chingizxon boshliq mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi, ya'ni XIII asrning o'rtalariga qadar bo'lgan be'sh asrlik davr erli xalqlar ma'naviy-madaniy hayotida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda madaniyat, uning deyarli barcha oohalari yuksak darajada rivoj topdi va O'rta Osiyoning dunyo

madaniyati tarixiga qo'shgan hissasini belgilab berdi. Movarounnahr, Xuroson xalqlari qadimgi madaniy an'analarga boy va ma'naviy mavqe jihatidan yuqori edi. shu sababli Urta Osiyo arab xalifaligiga, musulmon dunyosiga kirgandan so'ng, VIII-XII asrlar davomida barcha musulmon o'lkalari madaniyati rivojida etakchi o'rinlardan birini egalladi.

O'rtaosiyolik olimu fozillar o'z vatanlarining ilm-fani, madaniyati uchungina xizmat qilib qolmay, xalifalik markaziy shaharlarida ham o'z ijodlari bilan ilmiy yo'nalish, madaniy rivojlanishda etakchilik dildilar. Buxoriy, Xorazmiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Forobiy, Marvoziy. Marg'iloniy, Termiziy, Marvarudiy kabilar shular jumlasidandir.

Islom dini, adabiyot, tabiiy fanlar, tarixnavislik, san'at, falsafa, huquqshunoslik ijtimoiy tafakkur kabi madaniyatning barcha sohasida ham bu davrda buyuk siymolar, mutafakkir olimlar, zamonasining ilg'or kishilari etishib chiqdilar. Urta Osiyoning Buxoro, Marv, Samarqand, Termiz, Urganch, Xo'jand, Axsiket, Marg'ilon, Binkent, Kesh (Kitob), Nasaf (Qarshi) kabi shaharlari o'z davrining taraqqiy etgan shaharlari va savdo markazlari sifatida ma'lum bo'ldi.

Bu davrda feodal munosabatlari rivojlandi, hu-narmandchilik rivoj topdi, arxitektura jihatidan yangi bo'lgan machit, madrasa, hammom kabi ijtimoiy binolar, saroylar, davlat muassasalari, bozorlar ko'plab qurila boshladn; iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar ham kuchaya bordi, konchilik ishi avj oldi; Toshkent, Farg'ona, Nurota, Uratpa, Samarqand atrofidagi tog'lardan topilgan temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumushlardan turli yarog'-aslaha, uy anjomlari, taqinchoqlar ishlab chiqarish rivojlandi. Neft va kumir topilgani hamda ulardan keng foydalanilgani haqida ham manbalarda ma'lumotlar bor. Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, dehqonchilik, chorvachilik, sug'orish-irrigatsiya madaniyati rivojlandi, charmchilik, jun, ipak, paxta ishlash, to'qimachilik avj oldi. Iqtisodiy rivojlanish ichki savdo-sotiqning kuchayishigagina emas, tashqi bozorlarning kengayishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Musulmon o'lkalari, arab mamlakatlari O'rta dengizga chiquvchi davlatlar, Xuroson, Hindiston, Xiton, Turkiston, Volgabo'yi, Sibir kabilar o'rtasida o'zaro savdo taraqqiy etdi, karvon yo'llari kengaydi.

IX asrning mashhur olimlaridan Ibn Xordadbek o'zining «Kitob al-mosalik va-l-mamolik» asarida Movarounnahr va Xurosondagi juda ko'p shaharlar, ular o'rtasidagi va ularni boshqa o'lkalar — Hindiston, Rusiya, Xitoy, Eron kabilar bilan bog'lovchi qator yirik savdo yo'llari haqida hikoya qiladi. Masalan, Xordadbek asarida shosh, Havas, Xo'jand, Ishtaxon, Nasor, Termiz, Farg'ona, Isfijob, Amul, Baykand, Qarshi, Forsb, Buxoro, Samarqand, Dabusiya, Banokit, Toroz, Navkat, Qadar, Axsiket, Bab, Ush, Uzgand kabi shaharlar va ularni bog'lovchi yo'llar masofasi, shuningdek, ahamiyati tilga olinadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning, moddiy madaniyat shakllarining bunday rivoj topishi ma'naviy madaniyat, uning turli shakllari taraqqiyotiga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu davr feodalizmning mustahkamlana va rivojlana borishi davri bo'ldi.

Bu davr madaniyatining xarakteren tomonlaridan biri shundaki, ilm-fan, san'at-adabiyot, ijtimoiy-fikr asarlari uch tilda — arab, fors-tojik va turkiy tillarda ijod etildi. Iqtisodiy va madaniy munosabatlarning rivoji, O'rta Osiyoning musulmon dunyosining muhim qismiga aylanishi, turkiy va forsiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning ma'naviy ko'tarinkiligi shu uch tilni madaniyat tili sifatida rivoj topishini taqozo etdi.

Arab tili, asosan, ilohiyot, din, dinshunoslik ilmlari, falsafa va fan tili sifatida, YAqin sharq mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlar tili sifatida keng qo'llanilgan bo'lsa, fors-tojik tili ko'proq adabiyot, san'at, badiiy madaniyat tili sifatida keng rivoj topdi. Turkiy til Urta Osiyo xalqlari orasida so'zlashuv tili, Koraxoniylar davlatida esa adabiyot, jamiyatshunoslik ilmlari, davlat tili sifatida rivoj topdi.

Ma'lumki, arab tili butun musulmon olamida, ayniqsa o'sha davrda xalqaro til, hukmron mafkura tili sifatida keng ishlatila boshladi. Hozirda ham u o'zining bunday mavqeini qisman saqlab qolgandir. Bu uch tilning O'rta Osiyoda keng tarqalishi va qo'llanilishi, shubhasiz, madaniy rivojlanish darajasiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Forsiy va turkiy til O'rta Osiyoda erli xalq tomonidan ishlatib kelingan bo'lsa-da, VIII—XII asrlarda tez rivoj topdi. Islom bilan birga arab tilining kirib kelishi,

ziyolilar tomonidan o'zlashtirilishi va keng foydalanilishi O'rta Osiyo xalqlarining arab tilidagi boy madaniy boyliklar bilan yaqindan tanishishiga hamda o'z madaniy yutuklarini keng musulmon olamiga olib chiqishiga imkon berdi.

XII asrdan boshlab arab manbalari Ovrupoda, Ispaniyada lotin tiliga tarjima etila boshladi. Natijada Evropa mamlakatlari ham bu yutuqlardan bahramand bo'ldilar. Bu davrda O'rta Osiyo, butun musulmon dunyosi madaniyatiga qadimgi yunon ilm-fani, madaniyatining ta'siri ham kuchaydi:

Ma'lumki, eradan oldin IV asrlarda makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi natijasida bu erda deyarli bir yarim asr davomida Selevkitlar boshchiligidagi grek-makedoniya davlati hukmron bo'lgan edi. Bu O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yunon madaniyati bilan birinchi bor tanishuviga sabab bo'ldi. Lekin IX asr oxiri — X asr boshlaridagi arab xalifaligidagi madaniy yuksalish qadimgi yunon madaniyati boyliklarining butun musulmon mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyoda ham keng tarqalishiga olib keldi.

Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun xalifalik o'rnini egallashdan oldin ma'lum vaqtgacha Marv shahrida yashab Xuroson va O'rta Osiyoda hukmronlik qildi. U ilm-ma'rifat ahliga katta e'tibor berib, saroyiga olimu fozillarni, qo'lyozma asarlarni to'pladi. Xalifalikni qo'lga kiritib Bag'dodga ko'chganda u o'zi bilan birga o'ziga yaqin olimu fozillarni, asarlarni, ilmiy asboblarni, sadoqatli turkiy askarlarini ham olib ketdi va xalifalikning markazida ma'rifatning rivojlanishiga katta e'tibor berdi. shunday qilib, Bag'dodda Xuroson, O'rta Osiyodan kelgan ko'p ziyoli, hunarmandlar o'rnashib qoldilar va ular arab madaniyati rivojida ma'lum rol o'ynadilar.

Bagdodda Xorazm, Buxoro, Samarqand, Marv mahallalari vujudga keldi. Xorun ar-Rashid davrida xalifalikning shimoliy qo'shnisi Vizantiya bilan yaxshi aloqalar o'rnatilib, uning madaniyati va u orqali qadimgi yunon madaniyati boyliklarini o'rganish boshlangan edi. Ma'lum davrda bu faoliyat nihoyatda tez avj oldi, maxsus tarjimonlar qadimgi hind, yahudiy, fors, ayniqsa yunon tilidagi ko'p asarlarni arab tiliga tarjima qildilar, ularni keng o'rganish, sharhlash ishlari yo'lga qo'yildi. Saroy qoshida «Donolik uyi» - «Baytul hikma» (o'z davrining

akademiyasi) tashkil etilib, boshqa tillardagi, ayniqsa yunon tilidagi ilmiy tadqiqotlarni o'rganish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Natijada bu davrda Xunayn va Baxtyashu, Sabit ibn Kurra, Qusto ibn Luqo, YAx'ya ibn Adiy, Ishaq ad-Damashqi, Ibn Mayka, Ibn Muqaffalar tomonidan juda ko'plab ilmiy-adabiy, axloqiy asarlar chet tillardan arab tiliga tarjima qilinib, musulmon dunyosida mashhur bo'ldi. Ma'mun saroyida - «Donolik uyida» O'rta Osiyodan borgan olimlar, ayniqsa katta hurmat va e'tiborda edilar, chunki ular o'sha davr ilm-fanining eng ilgor vakillari sifatida nom qozongan edilar.

Bu tarjimalar tufayli qadimgi yunonning mashhur mutafakkir olimlari Platon, Aristotel, Evklid, Plotin, Arximed, Galen, Gippokrat, Porfiriylar, Sokrat kabilarning falsafa, riyoziyot, falakiyot, tabobat, she'riyat, mantiq ilmi va ruhshunoslikka oid asarlari musulmon olamida keng tarqaldi. Natijada qadimgi yunon ilmi va falsafasining boy yutuqlari (arab tilida tarqalgan) musulmon o'lkalarining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Musulmon olimlari bu boy merosning asosiy merosxo'ri bo'ldilar. Movarounnahr va Xuroson olimlari qadimgi yunon madaniyatining ilg'or g'oyalari va boyliklarining o'z mshumul mohiyatini tushunib, birinchi bo'lib qabul qildilar, rivojlantirdilar va targ'ib etdilar.

Qadimgi yunon madaniyati dunyo madaniyati, ayniqsa ilm-fan taraqqiyotida nihoyatda buyuk belgilovchi rol o'ynaganligi barcha manbalarda mashxur olimlar tomonidan e'tirof etiladi.

shunday qilib, VIII—XII asrlarda O'rta Osiyoda ilk O'rta asr musulmon madaniyatining shakllanishi, rivojlanishi va yuksak cho'qqilarga ko'tarilishida mada niyatlarning o'zaro ta'siri, qorishuvi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davrda moddiy madaniyat, iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi asosida san'atning turli sohalari ham taraqqiy etdi, arxitektura, o'ymakorlik, badiny hunarmandchilik, musiqa, qo'lyozma bezash kabi sohalar yuksaldi.

O'rta asrdagi qator sayyohlar, tarixchilar bu davrda O'rta Osiyo boshqa sharq mamlakatlari ichida eng rivojlangan o'lkalar bo'lganligi haqida hikoya qiladilar. Bu o'lkada ko'rkam shaharlar ko'p bo'lgan, suv inshootlariga, binolarga, qurilishlarga boy bo'lgan, qishloq xo'jaligi rivojlangan, hunarmandchilik taraqqi etgan.

Samarkand, Buxoro, Urgench, Marv, Termiz, Farg‘ona kabi shaharlar butun musulmon sharqida dong‘i ketgan savdo markazlaridan, madaniyat o‘choqlaridan bo‘lib, xalqaro iqtisodiy-madaniy munosabatlarda muhim rol o‘ynaganlar. Masalan, X-XI asr arab sayyohi Idris «Nuzhat at-mushtaq» asarida Farg‘ona haqida shunday yozadi: «Farg‘ona-vodiy nomi». Uning keng shahar va qishloqlari juda ko‘p. Markazi — Axsiket. Axsiket — ash shosh daryosi (Sirdaryo) yoqasidagi ajoyib shaxar”

O‘rta asr tarixchisi Equt Hamaviy «Mu’jam al-buldon» asarida qayd qiladi: «Farg‘ona Movarounnahrda shahar va katta vodiy... Bu o‘lka juda boy va serhasham. Aytishlaricha, unda 40 tacha minora bo‘lgan, bu shahar bilan Samarqand o‘rtasidagi masofa 50 forsax. Movarounnahrda Farg‘onaga teng o‘lka yo‘qdir; odamlarning soni, chorvaning va ekinning ko‘pligi jihatidan ham shunday».

Idrisiy va Hamaviylar Farg‘ona vodiysiga kiradigan shahar va qishloqlarni ko‘rsatib, Xavakand (Qo‘qon), Xo‘jand (Quva), Koson, Andukan (Andijon), Gandab, yadaxkat, Navkat, Lamish, Mamud, Xaylash, Ishkit kabilarni qisqa tasvirlab o‘tadilar. Bu davr shahar madaniyatining tez rivojlanishi davridir.

shaharlarning, turli ijtimoiy binolarning ko‘plab qurilishi me’morchilik, arxitekturaning taraqqiysiga olib kelgan. O‘sha davrda bizgacha etib kelgan arxitektura yodgorliklari shuni ko‘rsatadiki, me’morchilikda qadimdan saqlangan qurilishdagi badiiy an‘analar bilan musulmon arxitekturasiga xos xususiyatlar asta-sekin qorishib ketgan.

IX-A asrlarda barpo etilgan Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi o‘zining tarhi, estetik ko‘rinishi, mustahkamligi, bezagp jihatidan hozirda ham kishini hapratga soladi. O‘sha davr me’morchiligining ajoyib namunalaridan yana biri X asrda barpo etilgan, Qattaqo‘rg‘ondan 60 km uzoqlikdagi Tim qishlog‘ida joylashgan maqbaradir. U o‘zining kiraverishdagi shifti va devorining ajoyib bezagi bilan kishini maftun etadi. shuningdek, Karki shahari yaqinidagi Alomdor nomi bilan ma’lum bo‘lgan Somoniylar so‘iggi vakilining maqbarasi ham tuzilishi, ixchamligi, pishiq g‘ishtdan qurilganligi, gumbazi, umumiy kompozitsiyasining bir

markazga yo'naltirilganligi bilan xarakterlidir, Bu maqbaralarda turli shakldagi pishiq g'ishtlar, har xil. geometrik rasmlar keng ishlatilgan.

Bunday maqbaralar O'rta Osiyoda ko'plab uchraydi. Surxondaryodagi Aq-Oston, Karmanadagi Mir Sayd Bahrom, Marvdagi Qizbibi maqbaralari shular jumlasidandir.

O'rta Osiyoning monumental me'morchilik tarixini o'rganishda o'sha davr machit, minora, shoh saroylari, turli ijtimoiy binolarning qoldiqlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ular ilk O'rta asrda arxitektura rivoj topganidan dalolat beradi. Eski Termizdagi CHorsutun, Buxoro yaqinidagi Deggaroi, yozma manbalarda eslatiladigan Xo'jand, Marv, Samarqanddagi machit va minoralar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari Xuroson va Movarounnahrda karvoisaroylar, shaharlar yaqinida esa qal'alar juda ko'p bo'lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida ayrim joylarda ularning qoldiqlari topilgan. 60-70 yillardagi Buxoro yaqinidagi Varaxsh shahrida olib borilgan qazilma ishlari O'rta asr shaharlarini o'rganishda juda ko'p ma'lumot berdi. Varaxsh shaharida o'tkazilgan qazilmalar O'rta Osiyoda IX-X asrlarda turli binolarning qurilishi, tartibi, tarhi, bezalishi, qurilish materiallari, turli hunarmandchilik xonalarining qanday jihozlangani, hashamatli saroylarning go'zalligi, o'sha davrdan saqlanib qolgan turli bezak buyumlari, idishlar, uy-jihozlari, oltin, kumush va turli qimmatbaho toshlardan ishlangan bezaklar, to'quvchilik asboblari, kiyim materiallariga tushiriladigan gullarning qoliplari, keramika, bezakli kulolchilik asboblari qoldiqlari haqida keng ma'lumot beradiki, bular hammasi o'sha davr san'atining yuqori darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Somoniylar davrida qurilish ishlari avj oldi, shaharlar kengaydi, yangi-yangi binolar, madrasa, machit, hammom, bozor, suvirrigatsiya inshootlari qurila boshladi, kutubxonalar soni ko'paydi: «Buxorodagi baland tosh devorlar bilan o'ralgan saroylar, turli rasmlar bilan bezatilgan mehmonxonalar, mohirlik bilan barlo etilgan bog'lar, xiyobonlar, hovuzlar» shular jumlasidandir. Movarounnahrning bosh shahari Samarkand esa o'z davrining eng ko'rkam shaharlaridan biriga aylandi. X

asrning 60-70-yillarida Samarqandda bo'lgan arab sayyohi Ibn Xavqal shunday yozadi: «Men uning (qal'asiga) ko'tarildim va ko'z oldimda insonga kamdan-kam nasib bo'ladigan ajoyib ko'rinish sodir bo'ldi: ko'm-ko'k daraxtlar, ajoyib saroylar, suv oqib turgash ariqlar... shaharni bezab turuvchi bino va maydon alohida «o'zga tashlanadi...

Samarqand katta bozorlarga ega bo'lgan eng yirik shaharlardagidek, qator mahallalar, hammomlar, uylar, karvoisaroylar joylashgan shahardir. Unga qisman qo'rg'oshindan qilingan kanal suvi oqib kiradi. Bosh machit shahristonda (shaharning markaziy kismi— muallif), undan pastroqda esa qal'a joylashgan ular o'rtasidan katta yo'l o'tadi. shahristonning Asfazor degan qismida. Somoniylar tomonidan qurilgan saroyning binolari joylashgan, Samarqand bqnolari yog'och va loydan qurilgandir. Samarqand Movarounnahrning nafis odamlari (ziyolilari - muallif) to'planga» shahar bo'lib, ularning eng yaxshilari shu shaharda ta'lim olgandnr».

Bu davrdagi Movarounnahr, Xuroson, Xorazm arxitekturasida turli geometrik bezaklarga, rang-barang shakllarga ega xom va pishiq g'ishtlarlan qurilgan binolar ko'p uchraydi (Arab ota, Xo'ja Iso maqbaralar» shular jumlasidandnr).

Bu davr arxitekturasida va san'atiga xos muhim xususiyatlardan yana biri bir-biridan farq qiluvchi kuv xonalarga ega bo'lgan fundamental saroylarning vujudga kelishidir (Termizdagi Qirqqiz binosi). Bu davrda pishiq g'ishtning keng ishlatilishi binolarning ko'rkamligini yanada oshirgan. Bu davr san'atinnng yana bir xarakterli tomonlarpdan biri — devorga solingan rasmlarda, fayans va kulolchilik buyumlarida turln hayvon, qushlar rasmining ifodalanishidir. Bu rasmlar ham o'zining estetik zavq qo'zg'atishn, sof va toza ishlanganligi bilan diqqatni tortadi. Ilk Urta asr ilmlari qatorida mexanika (ilm-al-xiyla) va matematikaning bir qismi sifatida geometriya ilmi ham Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy asarlarida maxsustilga olingan bo'lib, ularning ayrim qoidalaridan qurilipg arxitekturasida ham keng foydalanilganini ko'ramiz, Masalan, X asr muallifi Abul Vafo al-Buzjoniy o'zining «Geometrik qoidalarning hunarmandlarga kerakIE tomonlari haqida kitob» asarida turli geometrik usul. lar yordamida har xil naqshlar, bino bezaklari yasash yo'llari,

quruvchi ustalarning tajribalari, badiiy usullari xaqida hikoya qiladi. Ayrim manbalarda o'sha davrdagi tasviriy va musavvirlik san'ati, xususan, portret chizish haqida ma'lumotlar keltiriladi. So'ngroq nihoyatda rivoj toptan miniatyuralar ko'proq kitoblarni bezash asosida avj olgan musavvirlik san'ati taraqqiyotining natijasidir. IX—XII asrda yozilgan forsiy bir manbada X asrdagi Xorazmshoh saroyidagi bir voqea tasvirlanadi: «Abu Nasr al-Iroq. musavvir edi. Mahmud (Xorazm shohi) unga Abu Alining suratini chizishni topshirdi. Undan 40 dona portret ko'chirish uchun rassomlarni chaqirtirdi. shohning buprug'iga qo'shib bu portretlarni barcha o'lkalarga jo'natdilar. Ulkalarining hokimlariga topshiriq berildi: Bu portretidagi odamning nomi Abu Ali ibn Sinodir. Uni topib bizga yuborilsin».

Bu parchadan ma'lum bo'ladiki, u davrda musavvirlik san'ati rivoj toptan va shoxlar uz saroylarida, musavvirlar ham saqlaganlar.

Arxeologik qazishmalar va qo'lyozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrda musiqa va musiqashukoslik ham keng rivoj topgan. Musiqashunoslik o'sha davrda matematika ilmining bir qismi hisoblangan va ayrim yirik olimlar asarida musiqa nazariyasi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Usha davrning bitta olimi Abu Nasr Forobiyning «Katta musiqa kitobi» butun O'rta asrda ma'lum bo'lgan. Bu kitobda musiqaning nazariy asoslari, kuylar, asboblari, musiqa madaniyatining prinsiplari, terminlari va boshqalar haqida boy materiallar keltiriladi. Bu kitob fransuz, forsi tillariga tarjima etilgan, 1963 yilda nashr etilgan «Forobiy va uning falsafiy risolalari»da bu kitobning boshlangich qismi O'zbek tilida ilova etilgan va sharhlab berilgan. «Katta musiqa kitobi» («Kitob al-musiqi al-kabir») O'rta asr musulmon sharhi musiqa nazariyasini o'rganishda noyob manbalardan hisoblanadi. Forobiyning ta'kidlashicha, u 2 katta qism va 3 kitobdan iboratdir.

«Birinchi kitobda — deb yozadi Forobiy,— musiqa bilimining usul-qoidalari va unga beg'liq bo'lgan turli narsalarni o'rganish xususida to'xtab o'tamiz... Ikkinchi kitobda zamonaviy (Forobiy zamonasi — M.X) musiqa asboblari haqida suhbat qilamiz va avvalgi kitobda aytib o'tilgan usul-qoidalarining- qaysi xilda ishlatilishini ko'rsatamiz. shu asboblardan har birining imkoniyatlarini aytib o'tamiz

va ulardan qanday qilib ko‘proq foydalanish haqida bahs qilamiz. Uchinchi kitobda turlicha bo‘lgan tovushlarning turlari xaqida suhbat bo‘ladi».

shunisi diqqatga sazovorki, bu asarda Forobiy nafaqat musiqa nazariyasi, uning falsafiy asoslari, tuzilish prinsiplari, musiqiy kuylar yaratish va bunday ijodning qoidalari ustida, balki amaliy musiqa iimalardan tashkil topganligi, qanday qismlardan iborat ekanligi, kuy yaratuvchi bastakor, ijrochi, shuningdek, ijro etish uchun zarur bo‘lgan asboblari, raqqosaning harakatlari haqida ham batafsil fikr yuritadi. «Musiqa ilmining uch asosi bor,— deb yozadi Forobiy-band, melodiya hamda qo‘l va badan a‘zolarining harakati. Band aqliy tushunchalarni ma‘lum tartib, muvozanatga keltirish uchun, melodiya past va yuqori ovozlarni ma‘lum tartib, muvozanatga solish uchun kashf etilgandir. Bu har ikki asos eshitish sezgisiga, qo‘l va badan a‘zolarining harakati esa ko‘rish sezgisiga bo‘ysunadn. Ular shu kabi va o‘zaro taqqoslab ko‘rish lozim bo‘lgan shunga o‘xshash harakatlarni band va ozoz bilan moslashtirib turish uchun yaratilgandir. Qo‘l va badan a‘zolarining harakati haqidagi ilm bu ikki muhim sezgiga, ya‘ni eshitish va ko‘rishga bo‘ysunadi. shunday qilib musiqa ilmining qaerdan va qanday kelib chiqqanligi aniqlanadi».

Forobiy musiqa haqidagi o‘zining fundamental asari «Katta musiqa kitobi»dan tashqari «Musiqa haqida so‘z», «Ritmlar tartibi haqida kitob», «Ritmga qo‘shimcha qilinadigan siljishlar haqida» singari musiqaga oid qator asarlar ham yaratdi.

Mashhur mutafakkir Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo» asarida, «Donishnoma»da musiqaga oid mustaqil bo‘limlar ham berilgandir. U bulardan tashqari maxsus «Risolai fil-musiqa» risolasini yozdi. Musiqaga oid atamalar, ma‘lumotlar boshqa olim-fozillarning asarlarida ham keltirilgan. Hozirda xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan «shashmaqom» kuylarining ayrim boshlang‘ich asoslari o‘sha davrlarda vujudga kelgan.

X-XIII asrlar davomida musiqa ilmiga bag‘ishlangan ishlar orasida Faxriddin Roziyining «Jamiul-Ulum» qomusining musiqaga bag‘ishlangan qismini ko‘rsatish lozim. Bunda Roziy musiqa ovozlarning tuzilishi, tebranishi, turli musiqa asboblariidan taralgan kuyning xususiyatlari, ritm, kuylar garmoniyasi, musiqaning

his-tuyg'uga ta'siri, musiqashunoslikning vujudga kelishi haqida, shuningdek, soz-musiqas asbobini yaratgan Pifagor va orgonon asbobini yaratgan Aristotel haqida ham qiziq ma'lumotlar keltiradi.

Faxriddin Roziy asari qatori XII-XIV asrlarda yashagan Masud ash-Ishroziy hamda Muhammad al-Amoliyning asarlari ham musiqa ilmi va musiqa san'atini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. O'sha davrda qadimgi so'g'd, urxun yozuvlari o'rniga arab yozuvining tarqalishi asosida bu yangi yozuvda turli asarlar yozish ham avj olgan. Ular qo'lda yozilib, ko'chirilgan. Qo'lyozmalarni chiroyli yozuvlar bilan ko'chirish, ularga turli bezaklar berish usullari ham keng qo'llandiki, bular umuman tasviriy san'atning rivojidan darak beradi.

Qo'lyozmalar arab yozuvida bitilgan. Boshlang'ich islom diniy kitoblari kufiy yozuvida bitilgan. So'ngra kufiy yozuvi asosida etti shakldagi yozuv sharqda, jumladan O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'sha davrdagi qo'lyozmalar mana shu etti xil shakddan birida bitilgandir. Bular — kufiy, sule, tavqe', riqo', rayhoniy, nasx, nasta'liq bo'lib, ular bir-biridan harflarining zichligi, tasviriyligi, shakllari, joylashuvi bilan ham farq qilgan. Bulardan, ayviqsa rayhoniy usuli nihoyat chiroyli bo'lib, sahifalarni bezashda duo kitoblarida ko'proq ishlatilgan. YOzuv san'atidan tashqari kitoblarni, ularning hoshiyalarini bezashda turli naqshlardan foydalanilgan.

Kitob yozishning kuchayishi xattotlik san'atining, uni bezash, naqshlar bilan ko'rkam qilish esa musavvirlik san'atining rivoj topishiga olib kelgan.

Umuman bu davrda qo'lyozmalarni ko'chirish, tayyorlash, to'plash madaniy hayotning eng muhim sohasiga aylanib qolgan. Ma'lumki, asar faqat qo'lda bir nusxadagina yozilar edi. Bosmaxona bir necha asrdan so'nggina paydo bo'lgan. YOzilgan asarning nusxasini ko'paytirish, boshqalarga ma'lum qilish, etkazish, undan nusxa olish zarur edi. shuning uchun nusxa ko'chirish, asarni ko'paytirishga katta e'tibor berildi. Asta-sekin maxsus nusxa ko'chirish san'ati va hunari shakllandi, shu tufayli bir joyda yozilgan asarlarni boshqa shahar, o'lkalarda tarqatish imkoni vujudga keldi.

Maxsus nusxa ko'chirish bilan shug'ullanuvchilar, husni xatni egallaganlar paydo bo'ldi, ular buyurtma yoki sotish uchun asarlardan nusxa ko'chirish bilan

shug‘ullandilar. Bu nusxa ko‘chiruvchilar arabchada maxsus kotib, nasix, xattot, muharrir, varrak deb yurigilgan. Asta-sekin turli shaharlarda kutubxonalar, kitob bozorlari vujudga keldi. Masalan, Byxoipo bozorida kitob sotish keng yo‘lga qo‘yilganligi haqidagi ma’lumotni Ibn Sinoning yozib qoldirgan tarjimai holidan bilib olish mumkin; Kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchilarni arabcha maxsus termin bilan ataganlar. Kitobga bo‘lgan muhabbat, kitobshunoslik, ko‘chiruvchilik faoliyatining avj olganligi, unga e’tibor kuchayganligi tufayli o‘n minglab qo‘lyozmalar bizning davrimizga qadar etib keldi.

Kitobdan ko‘plab nusxa ko‘chirish, kitob savdosining keng yo‘lga qo‘yilishi hamda ma’rifatparvar shaxslarning tinimsiz faoliyati natijasida Buxoro, Samarkand, Marv, Nishopur, Bag‘dod, Damashq singari shaharlarda katta kutubxonalar vujudga keldi. Bozorlarda kitob rastalari soni oshdi, kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchilar kitob tarqatish ishi bilan mashg‘ul bo‘ldilar. O‘rta Osiyoga Bag‘dod, Misr, Eron, Ispaniya xalifaligining turli shaharlaridan qo‘lyozmalar keltirilar, O‘rta Osiyo qo‘lyozmalari esa boshqa o‘lkalarga olib ketilar edi.

Ibn Sino hikoya etishicha, u Buxoroda somoniylardan shoh Nuh ibn Mansurni davolash davomida obro‘ orttirib, uning kutubxonasiga kirishga ruxsat olgan.

«Bir kun amir Nuhdan kutubxonasiga kirishga va u erda tilga oid kitoblarni mutolaa qilish va o‘qishga ruxsat so‘radim. shoh menga ruxsat berdi. Men ko‘p xonalardan iborat (kitob) xonaga kirdim. Har bir xonada kitob sandiqlari, bir-birining ustiga qo‘yilgan kitoblar bor edi. Xonalarning birida arab kitoblari, she’rlari va boshqasida fiqhga oid kitoblar turardi. shu tartibda har bir xonada fanning ma’lum bir sohasiga oid kitoblar turar edi. Keyin oldiigi o‘tganlarning kitoblar ro‘yxativi o‘qib chiqdim va undan kerak bo‘lganini axtardim. Men u erda shunday kitoblarni ko‘rdimki, hatto ularning nomlarini ko‘pchilik xalq eshitmagan edi. O‘zim ham ularni oldin ko‘rmagan edim, bundan keyin ham uchratmadim. O‘sha kitoblarni o‘qib, ularning foydasini tushundim, har bir muallifning ilmiy darajasini bilib oldim».

Ibn Sino o‘z tarjimai holida o‘sha davrda san’at, adabiyot, ilm-fan tarmoqlarini qanday tartibda mustaqil egallaganligi, u yoshligida matematika,

geometriya, qonunshunoslik, mantiq, tabiatshunoslik, ilohiyotga oid asarlarni birin-ketin o‘qib chiqqanligi, turli ilmlarga oid arab-fors tillarida yozilgan qo‘lyozmalar maxsus bozorlarda sotilganligi haqida noyob ma’lumotlar beradi.

Bu davrda san’atning turli sohalari rivoj topishi, kitobga bo‘lgan qiziqishning oshishi, qo‘lyozma fondlar kutubxonalarining shakllanishi O‘rta asr O‘rta Osiyosi madaniyatining tez sur’atlar bilan rivoj topishini ko‘rsatadi.

IX-X asrlarda madaniy rivojlanishning muhim qismi bo‘lmish qomusshunoslik vujudga keldi. Bu ilk O‘rta asrda turli bibliografik, jo‘g‘rofiy lug‘atlar har xil antologiyalarning ko‘plab yozilishida o‘z ifodasini topdi. Bu lug‘atlar olimlar, yozuvchi-shoirlar, davlat ishlaridagi xizmatchilar, o‘quvchilar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. shuning uchun bunday axborot materiallari, lug‘atlarni ko‘chirish ish» yaxshi yo‘lga qo‘yilgandi. Kitobga bo‘lgan qiziqish, ularni to‘plashga intilish, kitob bozorlari, maxsus kutubxonalarning vujudga kelishi bu davr madaniyatining muhim qismi edi.

VIII-X asrlarda kutubxonalar avvalo machitlarda vujudga keldi, so‘ng yirik olimlar, shoh va vazirlar tomonidan shakllantirildi. Umuman, kitobga qiziqish, ularni to‘plash va saqlash O‘rta asrda ma’rifatga intilishning muhim qismiga aylandi. Machit, Madrasa, kasalxona, maqbara, saroylarda va boshqa erlarda shaxeiy kutubxonalar soni ko‘paydi. Katta shaharlarda, masalan, Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch kabi madaniyat o‘choqlarida katta kutubxonalar mavjud edi. Ko‘ya hollarda machitlarda boshlang‘ich maktablar ham joylashgan bo‘lib, ularda boshlang‘ich ma’lumot berilar edi.

Bu davr ma’naviy madaniyatining eng boy, rang-barang sohalaridan biri adabiyot bo‘lib, u o‘z davrining dunyoqarashi, ijtimoiy ongining muhim tomonlarini o‘zida ifodalaydi. Turli janrlarni o‘z ichiga olgan, turli tillarda yozilgan badiiy asarlarsiz zamonaviy madaniyatini o‘rganish, tasavvur etish mumkin emas.

Badiiy adabiyot bu davrda O‘rta Osiyoda uch tilda rivojlandi: asosan fors va turkiy tillarda, lekin arab tilida ijod etganlar ham ko‘p uchraydi. Ayrim hollarda ikki tilda - fors va arab tillarida, ayrim hollarda fors va turkiyda ijod etildi. Badiiy ijodda ustun janrni she’riyat — poeziya tashkil etdi. O‘rta asr poeziyasi o‘z qonun-

qoidalariga ega bo'lib, turli shakllarda rivoj topgan bo'lsa-da, unga xalq ijodining ta'siri katta bo'ldi. Bu davrda she'riyat ma'naviy hayot, madaniyat, ma'rifatparvarlikning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. she'riyatga e'tibor, shoirlar bilan muloqotda bo'lish, ularga hurmat ko'rsatish ma'rifatli hokimlar uchun davlatning obro'yini oshirishda muhim xislat deb bilindi. Masalan, somoniylar o'z hokimiyatining nufuzini ko'tarish yo'lida turli shahar, o'lkalardan kelgan shoirlarni, olimu fozillarni o'z atrofiga yig'dilar. shuningdek, xorazmiylar, g'aznaviylar, qoraxoniylar ayrim shoh, hokim saroylarida shoirlarni, olimu fozillarni saqlaganlari manbalardan ma'lumdir. she'riyatga katta e'tibor berilib, noyob iste'dod egalarini, bilimdonlarni hokimlar o'zlariga yaqin tutishga harakat qilganlar, Bu davrdagi she'riyat qasida, g'azal, ruboiy, satira kabi shakllarga ega bo'lib, mazmunan juda keng bo'lgan, o'z davridagi ijtimoin-siyooiy intilishlarni, insoniy axloq-odob, turli his-tuyg'ularni ifodalash uchun xizmat qilgan. she'riyatdan ayrim shoirlar o'z hokimlarini ko'klarga ko'tarib maqtash, shunnngdek, davlat kishilarining qilmishlari, adolatsiz ishlarini satira ostiga olish, tanqid qilish uchun ham foydalanganlar. XII asrning taniqli yozuvchisi Aruziy S a marka ndiy she'riyat jamiyat hayotida muhim rol o'ynaganini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi; «she'riyat, bu-san'atdir. shoir ruhan sof, ko'ngli keng, to'g'ri, hushyor bo'lmog'i lozim. U turli ilmlardan boxabar, turli xil urf-odatlar bilan tanish bo'lmog'i kerak, chunki har bir she'r har qanday ilm uchun foydali bo'lganidek, har bir ilm ham she'riyatda o'z ifodasini topishi mumkin».

shoir va she'riyatning fazilatlari ustida to'xtab, Aruzliy Samarqandiy yana shunday yozadi: «shoir ruhi toza, bag'ri keng, to'g'ri ko'ngil va zehni o'tkir bo'lmog'i kerak, U turli fanlardan xabardor va turli xil urf-odatlar bilan tanish bo'lmog'i lozim, chunki she'riyat har bir fanda foydali bo'lganidek, har bir fan ham she'riyat uchun foyda keltirishi mumkin.

shoir suhbatdoshlar majlisida shirin so'z, do'stlar davrasida esa yoqimtoy bo'lishi darkor hamda uning she'rlari shu darajaga ko'tarilmog'i kerakki, ular zamona sahifalarida iz qoldirsin va hurmatli odamlar lafzidan tushmasin. CHunki

eng etuk maqsad va she'ning eng oliy vazifasi — shoir nomini abadiylashtirishdir; she'r o'qilmaguncha va ko'chirilib yozilmaguncha bu maqsadga erishib bo'lmaydi».

Bu misralar she'riyat, umuman badiiy adabiyotdan o'sha davr kanday ma'naviy fazilatlar talab etganligini ko'rsatadi.

Movarounnahr va Xurosondagi fors-tojik tilidagi badiiy adabiyot, turkiy badiiy adabiyot haqida manbalar etarli darajada: arab tilidagi adabiyot haqida birdan-bir manba O'rta Osiyo olimi Abu Mansur ibn Abdumalik As-Saolibiyning «Ilatimat-ad-dahr fi mahosin ahl al-asr» («Asr ahli fozillari haqida zamana durdonasi») hamda «Tatimmat al-Yatima» nomli antologiya xrestomatiyalaridir. Bu kitobda turli musulmon o'lkalaridagi arab tilida ijod etgan yirik shoirlar haqida noyob ma'lumotlar va ular asarlaridan namunalar keltirilgan. Bu antologiyaning to'rtinchi qismi to'lig'icha Movarounnahr va Xurosonda arab tilida ijod etgan shoirlarga bag'ishlangan.

As-Saolibiyning ijodi, uning merosi, shuningdek, O'rta Osiyoda arab tilidagi badiiy adabiyot haqidagi ma'lumotlar atokli olim I. Abdullaevning uzoq yillik ilmiy tadqiqotlari tufayli bizga ma'lum bo'ldi.

Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiylar bilan bir davrda yashab, o'z zamonasining mashhur olimu fozillari bilan muloqotda bo'ldi. U Nishopurda tug'ilib o'sgan bo'lsa-da, Buxoroda uzoq yashab ijod etdi. 50 dan ortiq filologiya, adabiyotshunoslikka oid o'z zamonasi adabiy hayoti haqida nihoyatda boy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asarlar yozib qoldirdi:

As-Saolibiy Xuroson va Movarounnahrda yashab, arab tilida ijod etgan 124 ta shoir haqida qisqa ma'lumotlar va she'rlaridan namunalar keltiradi. Bular Buxoro, Xorazm, Nasaf (Qarshi), Marv, Marvarud, shosh, Foryob, Balx, Hirot, G'azna kabi shaharlarda tug'ilib O'rta Osiyoda ijod etgan shoirlardir.

Muhammad al-Murodiy Buxoroning etuk shoirlaridan, Rudakiyning do'sti, shu erda tug'ilib o'sgan. Zamonasining yirik shoirlari bilan muloqotda bo'lgan. U ikki tilda — asosan, arab, qisman for-tojik tillarida ijod etgan. Qasidalar, davlat idoralarida ishlovchi xodimlar haqida satiralar yozgan.

Muhammad ibn Xotim al-Musabiy somoniylar davrining shoirlaridan, kotib va davlat arbobi bo'lib ishlagan. Arab, fors-tojik tillarida qasidalar, g'azallar, satiralar yozgan. Uning faoliyati, ijodi, she'riyati haqida boshqa manbalarda birmuncha ma'lumotlar keltiriladi.

Abu-l fazl as-Sukkari al-Marvoziy Marvning ma'lum shoirlaridan biri bo'lib, arab va fors tillarida she'rlar yozgan. Matal, maqollardan va xalq adabiyotidan keng foydalangan. Uning tomonidan qo'llangan maqollar, baytlar hozirda ham xalq o'rtasida uchray turadi.

Abu Muhammad ibn Matran al-Matroniy shosh (Toshkent) shaharida tug'ilib o'sgan, o'z davrining atoqli shoirlaridan. Buxoroda obro' qozongan, she'rlar, qasida va satiralar yozgan, tabiat go'zalligini kuylagan.

Abu Ahmad al-Kotib Buxoroda tug'ilib o'sgan, saroyda kotib bo'lib xizmat qilgan. O'z davrining madaniyatli, eng o'qimishli kishilaridan bo'lgan. Makkada bo'lgan, qisqa vaqt Bag'dodda yashagan, Hirot, Nishopurda ishlagan, lekin asosan umrini o'z vatani Buxoroda o'tkazgan.

Abu Ahmad qasida, satiralar yozgan, she'rlarida pessimistik ruh kuchli, shunngdek, u qonunshunos olnm ham bo'lgan.

Husayn ibn Ali al-Marvarudiy somoniylar davrining shoirlaridan biri. U hozirgi Murg'abning yuqori qismida joylashgan Marvarud shahrida tug'ilib o'sib, Buxoroda yashagan. Uning ijodi xalqqa yaqin bo'lgan. U shohga qarshi qaratilgan shia, karmat harakatlarida ishtirok etgan.

Al-Laxxam al-Xarroniy Buxoroda deyarli 30 yil davomida ijod etgan o'z zamonasining mashhur shoirlaridan biri. U Termiz, Xorazm shaharlarida ham xizmat qilgan, asosan satira, qisman qasidalar yozib turgan. U somoniylar davrining vazirlari, davlat ishlari ustida ish yurituvchi shaxslar ustidan kulgan, yuqori lavozimdagi kishilarni qattiq tanqid qilgan. Ko'p asarlarini badiha tarzida yaratgan.

Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy (935—993) o'z davrining mashhur shoiri, yozuvchisi, olimi. Uning merosi arab tilidagi she'rlar va nasriy didaktik asarlardan iborat bo'lib, o'z davri madaniyati tarixini o'rganishda muhim manbadir. U arab tili sohasida yirik mutaxassis bo'lgan, leksika, etnografiyani

yaxshi bilgan. Nasriy asarlardan tashqari ko'p qasida, satira, marsiyalar yozgan. Davlat arboblari ustidan kulgan, ularni fosh etgan, ishyoqmas dangasalarni tanqid qilgan. U Xorazmda tug'ilib o'sib, so'ngo'z yurtidan chiqib ketgan. Iroq, Suriya shaharlarida bo'lib Xalabda Sayf ud-Davla saroyida yashagan, so'ng Buxoroda Somoniylar saroyida bo'lgan. Umrining oxirida Nishopurda yashab va fot etgan.

Uning «Rasoil» («Nomalar») asari nasrda yozilgan. «Rasoil» ilm-fan, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, do'stlik haqidagi xatlar to'plamidan iborat bo'lib, ham mazmuni, ham yozish usuli jihatidan o'z davrining ajoyib asaridir. U yozishmalar — nomalar janrining so'nggi rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Rashid ad - Din Muhammad al-Umari — Votvot (1114—16 yilda tug'ilgan, vafoti 1182-83 yillar) xorazmshohlar saroyida yashab, o'z she'rlari va nasriy asarlari bilan mashhur bo'lgan, boshqa qator shoirlarga homiylik qilgan. O'sha davr tarixchisi YOqut Hamaviyning «Irshod» kitobida qayd etilishicha, Votvot «she'r yozish va nasrda nihoyatda mohir edi, arab tili va grammatikasi sirlarini hamda adabiyotni hammadan ko'ra yaxshi bilar edi. Uning shuhrati butun olamga tarqaldi va barcha o'lkalarga mashhur bo'lib ketdi...». Ba'zan u bir vaqtning o'zida ham arab tilida, ham fors tilida boshqa-boshqa vaznda she'r aytar edi. Vot-vot arab va fors tillaridagi she'riyatga oid qator devonlar muallifidir.

Abu Abdullah Muhammad ibn Hamid al-Xorazmiy o'z davrining ajoyib shoiri va davlat arbobi. U xorazmshohlar saroyida kotib, vazir, diplomat, elchi bo'lib ishlagan, qator qasidalar, lirik she'rlar yozgan.

Ilk O'rta asr mualliflari Equt Hamaviy, Abn Abi Usayba asarlarida X—XII asrlarda Xorazmda xorazmshohlar davrida juda ko'p shoir, yozuvchilar yashab ijod etganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Abu Ali Naysaburiy, Al Boqqali al-Xorazmiy, Equb as-Sakkokiy kabi o'nlab olim-shoirlar shular jumlasidandir.

Haydar al-Xo'jandiy somoniylar davrida Xo'jandda tug'ilib o'sgan, arab tilida ijod etgan shoirlardan. As-Saolibiy uning satira va lirik she'rlar yozganligi haqida ma'lumot beradi va baytlaridan misollar keltiradi.

IV. ISLOM MADANIYATI VA SHARQ DUNYOSINING BUYUK ALLOMALARI

Sharq adabiyotida yagona “musulmon” madaniyati degan tushuncha uzoq vaqtlar davomida saqlanib qolingan. Bu tushuncha asosida esa oʻrta asrlarda xalifalik turkumiga kirgan davlatlarda binoga kelgan barcha madaniy meros tushuniladi. Hozirda olimlarimiz uchun shu kungacha noma'lum sanalgan manbaalarga keng yoʻl ochilgaligi va ularni ya'ni xalifalik davridagi adabiyot, falsafa, san'at va boshqa fanlarni oʻta sinchiklab oʻrganish natijasida bu tushunchaning oʻrinsizligi ayon boʻlib qoldi.

Xalifalikda davlat tili - arab tili edi. Umumiy din – islom adabiyot va san'atga oʻz hukmronligini oʻtkazishiga qaramasdan, mamlakatning arab boʻlmagan aholisi oʻrtasida qadimiy an'analarga tayangan holda mahalliy madaniyat ham rivojlana boshladi.

Arabiston, Iroq, Suriya, Falastin, Misr va shimoliy Afrikada oʻrta asr arab madaniyati barpo boʻla boshlaydi. Jahon madaniyatining juda yuqori va progressiv rivojlanishida arab madaniyati oʻz vaqtida munosib hissasini qoʻshgan. Ayniqsa, arablar antik dunyoning qimmatbaho yutuqlarini avaylab-asrab oʻz avlodlariga etkazib kelganlarini alohida ta'kidlab oʻtish joizdir.

Buyuk madaniyatlar tarixida arab madaniyati juda muhim oʻrin egallaydi. Arab madaniyati oʻz vaqtida Hindistondan Ispaniyatgacha, YAqin va Oʻrta sharq hamda shimoliy Afrika davlatlarida ham gullab – yashnadi. Oʻrta asr

Evropasi bilan antik davr sivilizatsiyasini bog‘lab turuvchi bu madaniyatning ta'siri dunyoning boshqa joylarida ham sezilib turgan, hozirgi kunda ham sezilib turibdi.

Arab fani falsafasi ham xuddi adabiyot kabi xalifalikning boshqa davlatlar xalqlarining ilmiy yutuqlari bilan taraqqiy topadi.

Arab olimlari faqat Eron, Gretsiya va Hindistonning balki, Vavilon, Finikiya, Qadimgi Misr davlatlarining ham madaniy va ilmiy meroslari bilan ham tanishishga muvaffaq bo‘ladilar. Arab fanining rivojlanishida arab bo‘lmagan olimlarning ham munosib hissalar bor. Dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, katta davlatni boshqarish umuman siyosat va iqtisodiyot ehtiyojlarini qoniqtirish uchun ham fanning rivojlanishi dolzarb va zarur edi².

Xalifalikda tabiiy va aniq o‘ta rivojandi. Arab olimlari grek va fors olimlari bilan birgalikda aniq fanlarni rivojlantirishda elkama – elka turib ishladilar. VII asrdayoq fors va greklarning ximiyadan qilgan ishlari arablarga aslida ham tarjima ko‘rinishida ma'lum edi.

Arablar o‘zlariga ma'lum “ximiya” so‘zi oldiga “al” (artikl) qo‘shadilar. Al ximiyaning asosiy maqsadlaridan biri metallarni sun'iy yo‘llar bilan oltin va kumushga aylantirishdan iborat edi. Biroq al ximiyaning g‘oyalari arablardan ham ilgari qadim davrlarda ham ma'lum edi.

O‘sha davrning eng yirik arab alximiklaridan biri – dorifurushning o‘g‘li Jobir ibn Xalyam (721-815) edi.. U alximiyaning tashqari tibbiyot, matematika, diniy va boshqa fanlardan ham asarlari bor edi. Uning asosiy alximik asarlari – “Etmishlar kitobi” va “Zaharlar to‘g‘risida kitobi” – Qohira va Istambul kutubxonalaridan 1927 – 1929 yillardagina topildi.

Jobir Aristotel nazariyasini rivojlantirib, erda quruq bug‘lanish yo‘li bilan oltingugurtni, bug‘ esa simobni vujudga keltiradi degan natijaga kelgan edi. Jobir ham Aristoteldek bir metallardan ikkinchi metalni hosil qilish mumkin deb hisoblardi. Ammo uning bu fikrlari xato bo‘lishiga qaramasdan ko‘plab tajribalar

² Мец Л. Мусульманский Ренессанс. М., 1966

natijasida u bo‘yoq, lak, kislota va boshqa ximiyaviy moddalarni yaratadi. Jobir birinchi bo‘lib azot kislotasi, xlor, simob va nashatirni yaratadi.

Bizning davrgacha arab olimlari foydalangan har xil asboblari – shisha kolbalar, voronkalar, junli va matoli filtr va shunga o‘xshash asboblarning tuzilishi to‘g‘risidagi yozuvlar etib kelgan. Hozirda o‘quvchilar foydalanayotgan ximiyaviy asboblari o‘sha davrdagi asboblarning o‘sha uzoq o‘tmishdagi asboblarning avlodlaridir.

Aniq fanlar sohasida arablar VIII – X asrlarda juda ko‘p yutuqlarga erishgan. Evklidning “Muqaddima”, Ptolemeyning “Buyuk qurilma”(arabcha “Almagest”), hind astronomlari va matematiklarining ishlari abbosiylar davrida arab tiliga tarjima qilingan edi. Arablar grek va hind fani yutuqlari bilangina kifoyalanmasdan, balkim O‘rta Osiyo olimlarining ishlari ham foydalanishgan. IX asrda xorazmlik olim al Xorazmiy arablarni hind arifmetikasi bilan tanishtiradi. U o‘nlik sanoq sistemasi to‘g‘risida kitob yozadi. X-XII asrlarda bu sonlar Evropada “arab” sonlari deb taniladi. Birinchi va ikkinchi darajali tenglamalarni echish usullari to‘g‘risidagi “Algebra” ham al Xorazmiyga tegishlidir. Algebra (al jabr – hisob) al Xorazmiy tomonidan kitob qilib chiqariladi va u matematikaning alohida bir qismi bo‘lib qoladi³.

Arablar trigonometriyada ham katta yutuqlarga erishadilar. Ptolemey davridan saqlanib kelingan “xord” jadvali o‘rniga “sinuslar” jadvalini ishlata boshlaydilar. Tangens va kotangenslarni ham ishga tushirishadi. X asr arab olimi Abu al Vafo yordamida arablarga uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi darajali ildizlardan chiqarish ma’lum bo‘ladi. Matematikaning rivojlanishi bilan astronomiyada ham bir qator yutuqlarga erishiladi. IX asrda Bag‘dod va Damashqda ikkita astronomik observatoriya qurilib ishga tushiriladi. Arab astronomlari xorazmlik olim al Xorazmiy tuzgan kvadrantlar, astrolyabiya va maxsus astronomik jadvallardan foydalanadilar.

1. Достижения науки средневекового Востока – Режим доступа: <http://nplit.ru/books/item/st010.shtml>

IX asrda arab olimlari er sharining aylanasi va meridian yoyini o'lchash ishlariga urinadilar. O'lchovlarni bir necha martalab qayta – qayta olib boradilar va arab olimlari urning aylanasi (hozirgi o'lchov birligida) 47325 km (aslida esa 40ming km) degan natijaga keladilar.

“Soliq haqidagi kitob”da provinsiyalarni ta'riflash, yashash punktlarini sanab o'tish va shunga o'xshash ma'lumotlar keltirilgan bo'lishigina – bu kitob qisman arab geografiya faniga qo'yilgan debochalardan biri desak adashmagan bo'lamiz.

Musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'onda ta'kidlanishicha, har bir qudrati etgan musulmon banda umri barobarida hech bo'lmaganda bir marotaba muqaddas Makka ziyoratiga borishligini farz qilib ko'rsatiladi. shuning ham ushbu haj safariga minglab ziyoratchilarbu muqaddas shaharga har yili yo'l oladilar. shu munosabat bilan **pochta** xizmati va ziyoratchilarni alohida yo'l boshlovchilari - **turizm** paydo bo'la boshlaydi⁴.

Xalifalik davridagi savdo – sotiq ishlarini olib borish uchun ham geografiya adabiyotlariga ehtiyoj tug'iladi. IX asrga borib arablarda ilmiy geografiya fani yuzaga keladi.

Boshqa xalqlarda bo'lganidek, arablarda ham geografiyaning rivojlanishiga grek olimlarinig ishlari bilan tanishish orqali rivojlantirilgan.

X asr arab tarixchisi al Ma'sudiy Ptolemeyning “Geografiya” va rangli kartalari ro'yxatini ko'rganligini yozadi.

Ptolemeyning “Geografiya”sini IX asrda al Xorazmiy birinchilardan bo'lib arab tiliga tarjima qiladi. O'sha davrdayoq arablarning al YOqubiy, ibn Xurdabek degan geograf olimlari etishib chiqqan.

Al YOqubiy geografik va tarixiy manbaalarga boy “Al buldan” kitobi bilan mashhurdir. U bu kitobida har qanday afsonalarga ishonmasdan ko'p mamlakatlarga sayoxatlarga borib, aniq faktlarga tayangan holda yozgandi. Uning

⁴Мир мусульманской культуры – Режим доступа: http://www.kch.ru/tat_ru/religion/islam/civilization/culture.htm

bu kitobida alohida mamlakatlarning xalqi, tabiiy iqlimi, uning hukmdorlari, urf – odatlari, an'analari bilan bir qatorda soliqlari to'g'risida ham juda qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Buning uchun u sharqdan G'arbga borayotgan odamlardan juda ko'p narsalarni so'rab surishtiradi, juda ko'p yo'l yuradi. O'z navbatida al YOqubiy ushbu kitobni juda uzoq muddat ichida yozib tugatadi.

X asrning yana boshqa bir geografi ibn Xurdabek aslida xalifalikning provinsiyalaridan birida pochta tarmog'i boshlig'i lavozimida xizmat qilgan. U o'zining "Davlat va yo'llar haqida" kitobi bilan mashhurdir. Bu kitobda asosan xalifalik shaharlari va ular orasidagi masofalar to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Xuddi shunday geografik ma'lumotlarni Kudam ibn Ja'far va Jayxon ibn Xaukal asarlarida ham uchratish mumkin. Ularning ishlarida nafaqat xalifalik, balki, Hindiston to'g'risida ham ma'lumotlar yoritib berilgan.

X asrda musulmon mamlakatlari va dunyo xaritasi bilan "Islom atlas" tuzildi. Bunda asosan ayniqsa Eronni juda aniq tasvirlangan.

Musulmon dunyosini to'la ifodalaganlardan biri al Mukaddasiy (985y o'lgan)dir asarining kirish qismida u bunday deb yozadi: "Biz bu kitobni uch elementdan tuzdik: birinchidan – biz o'zimiz ko'zimiz bilan ko'rganlardan, ikkinchidan – so'zlab bergan odamlarning gaplaridan, eshitganlarimizdan, uchinchidan – ushbu va boshqa predmetlar to'g'risida yozilgan asarlardan topganlarimizdan".

Bag'dod xalifaligining Volga bolgarlari huzuridagi elchixonasi sekretari bo'lgan ibn Fadlan (921y)ning ishlari sayohatchilarda ayniqsa qiziqish uyg'otadi.

shu o'rinda arab dengizchilarining sharq mamlakatlari – Xitoy, Hindiston, Seylon va YAva to'g'risidagi o'z ko'zlari bilan ko'rgan haqqoniy ma'lumotlarini eslab o'tish o'rinlidir. O'z hayotini xavfga qo'yib juda ko'p sayohat qilgan va yana Bag'dodga sog' – salomat qaytgan dengizchi Sindbod obrazi adabiyotga kirib keladi.

VII – X asrlarda arab tibbiyoti mustaqil fan sifatida hali binoga kelmagan edi. Ummaviylar davridagi ko'pchilik mediklar xristianlar, suriyaliklar va yahudiylardan iborat edi. VII asrning oxirlarida grek tibbiy traktatlarini arab tiliga

tarjima qilish boshlandi. Biroq o'sha davrda ham, undan keyin ham arablar tibbiyotga ishonqiramasdilar. Abu al Ataxiy satirasida ham bu ishonchsizlikni yaqqol ko'rishimiz mumkin: " Vrach o'zining dorisi bilan umri tugayotgan bo'lsa ham o'zi icholmasa. Bu nimasi, boshqa birovni xuddi shu kasalini davolasa – yu, biroq o'zi shu kasallikdan vafot etsa? Davolagan ham, ichgan ham baribir o'ladi".

Arablarining birinchi tarixiy yozishmalari Muhammad to'g'risidagi yozuvlar edi. Xalifalikning birinchi yuz yilligida forslar arab tilida tarixiy yozishmalar va bu arab tarixchiligiga asos bo'lgan. Bu yozuvlar IX asrdan boshlangan bo'lib, ular arablarning g'alabalari to'g'risida so'zlagan. "Umumiy tarix"ga faqat tarixiy ma'lumotlar kiritilgan, ko'proq afsonaviy voqealar – Odam Ato, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad payg'ambarlarning hayotlari to'g'rsidiga voqealar kiritilgan. Tarixiy manbaalarda yahudiylar, greklar va rimliklarning hayoti to'g'risida qisqa – qisqa yozilgan.

Arab xalifaligining barcha davrlarida fanlar ichida alohida e'zozlanadigan fan – tarix fani edi. darhaqiqat, bu fan arablarda islom bilan barobar dunyoga kelgan, chunki aynan u Muhammad payg'ambar va uning ishlari haqidagi hadislarini, dastlabki xalifalar va ularning faoliyatlari haqidagi ma'lumotlarni saqlab kelgan. Islom tarixi shuningdek o'z urug'i tarixani bilmaslik musulmonlargda eng katta gunoh sanalgan.

Arab tarixshunosligi kelib chiqishi va g'oyaviy-nazariy asoslariga ko'ra, eng avvalo folklor-adabiy an'analar va ilohiyot qur'on majmuasi bilan bog'liq. YUqorida aytib o'tganimizdek , tarixga bag'ishlangan risolalar islom jamoasining siyosiy va intellektual jihatdan faol qismi ifodalanadigan faoliyati tarixi mavzusi bilan bog'liq. Bunga islomgacha bo'lgan Arabiston rivoyatlari, qadimgi payg'ambarlar, O'ta Osiyo, fors va boshqa sharq podsho va hokimlarning afsonaviy tarixi ham qo'shiladi. Uman o'rta asr arab musulmon jamiyati uchun tarixan o'z-o'zini anglashning tugallangan shakllari, oy taqvimi bo'yicha yilni aniq hisoblash, tarixshunoslik an'alarining avloddan-avlodga o'tish xos edi.

«Yurishlar kitobi» ilk asarlarini arab tarixchisi Umar al Vakidiy (747 – 823yy)ning Muxammadning yurishlarining yig'indi to'g'risidagi yozganlaridir.

Keyinchalik bu asar xalifalikning yirik tarixchisi, millati fors bo'lgan al Balazuriy (892 y o'lgan) ishlarida foydalangan. Balazuriyning ishlarida faqat harbiy yurishlar to'g'risidagina emas, balki davlatning ma'muriy tuzilishi, arablarning boshqa mamlakatlarni mustamlaka qilib olishi, soliqlarning miqdori va qal'alarining qurilishi va shunga o'xshashlar to'g'risida axborot berganligi bilan qimmatlidir.

Ummaviylar hukmronligi davri haqida fors tarixchisi Abu Xanifa Dinaveriy (895 y o'lgan) juda boy ma'lumotlar bergan. Uning "Uzun rivoyatlar kitobi"ning qimmatliligi shundan iboratki, u bu kitobida arab aristokratiyasiga qarshi xalq harakati to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar berganligidadir.

Avaval eslab o'tganimiz al YOqubiy geograf bo'libgina qolmasdan, balki u tarixchi ham edi. Uning "Tarix" ("Yilnoma" yoki "Tarix") kitobi xalifalikning VII – IX asrlarida mamlakatning tarixi to'g'risidagi juda qiziqarli ma'lumotlari yozilgan tarixiy manbaalardan biridir.

Xalifalikning eng mashhur tarixchilaridan biri fors al Tabariy (838 – 923 yy) bo'lib, uning eng katta umumiy tarix kitobi – "Payg'ambarlar va podshohlar tarixi" kitobidir. Bu kitobda u Bibliya tarixi, Rim va Vizantiya imperatorlari hamda Eron shohlari to'g'risida qisqacha izohlar berib o'tgan. Tabariy bir tarixiy voqea to'g'risida bir necha har- xil vkrsiyaldarni bir-birlariga taqqoslaydi va farqlarini ko'rsatib beradi. Masudiy (956 y o'lgan) bir vaqtning o'zida ham geograf ham taixchi bo'lib o'tganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Bizgacha uning "Oltin promqvalni va qimmatbaho toshlar konlari" nomli geografik ensiklopedik asari saqlanib qolgan. Bu asarda xalifalikning alohida mamlakatlari, viloyat va shaharlarining geografiyasi va tarixi bo'yicha juda qiziqarli ma'lumotlar joylashgan. Masudiyning bu asari xalifalikning tarixi va geografiyasi to'g'risidagi qimmatbaholgi va manbaalarning salmog'i bilan eng ko'zga ko'rinarli asarlardan biridir.

VIII – X asr arab geografiya va tarixchiligi fani boshqa fanlar kabi arablar zavoevaniya va ular asos solgan davlatni maqtar, feodal sinfnining boshqaruv siyosatini tasdiqlar edi.

Xalifalikda falsafa fani ham musulmonchilikni qo'llab - quvvatlar va ideologik xarakterga ega edi. Xalifalikda bora – bora islom hukmron din bo'la boshlaydi va arab ideologlari esa ideologik falsafa tuzumlari yordamida Qur'on ta'limotlarini asoslashga harakat qilishardi. IX – X asrlardayoq falsafada islom dogmasiga qarshi idealistik yo'nalish bilan bir qatorda materialistik qarashlar ham paydo bo'la boshlaydi. Bunday qarashlarning paydo bo'lishida tabiiy va aniq fanlar yutuqlarining ta'siri juda katta bo'lgan.

Qur'on – badiiy asar sifatida. Qur'on turli davrlarda Muhammadning sahobalari tomonidan tqplanib kelingan. Ular bu yozuvlarin palma yaproqlarini ruchka sifatida ishlatib daraxt yoki tuproqdan yasalgan tablichkalarga yozib olishgan. Faqat Usmon xalifaligi davriga kelgandagina ya'ni 645 yili Qur'on birlashtirib, bir to'plam qilib yozma kitobga qayd qilingan.

Musulmonlarning muqaddas kitobi maxsus usulda yozilgan. Tadqiqotchilar shu kunga qadar ham Qur'onning qanday usulda yozilganligi to'g'risida bahslashmoqdalar.

“Biz Qur'onning qanday usulda yozilganini aniqlay olmayapmiz. Uni biz aniq ritmik usulda ifodalangan ham deya olmaymiz, - deb yozadi arab tarixchisi ibn Xaldun, - yana biz Qur'onni she'riy qofiyada yozilgan deya olmaymiz”.

Qur'onning binoga kelishi yagona arab tilining shakllanishini tezlashtirib yuboradi va uning juda ko'p davlatlarda yoyilishiga sabab bo'ladi.

Qur'on va hadislar arab tiliga diniy terminlar bilan bir qatorda huquqiy terminlarni ham olib kiradi. Chunki Qur'on musulmonlar uchun faqat muqaddas kitobgina, balki musulmonlarning huquqlari asosi bo'lmish qonunlar majmuasi hamdir.

Eron dehqonlarining birinchi qatorga o'tishlari arablar forslardan nafaqat davlatni boshqarish tizimini balki, boshqa madaniy yutuqlar va an'analarni ham tortib oldilar. Fors adabiyotining qator asarlari arab tiliga tarjima qilindi va ularni qiziqish bilan mutolaa qilindi. Arablar eron, fors shoir va yozuvchilarning asarlari bilan tanishdilar. Fors madaniyati orqali xalifalikka hindlarning ham madaniyati kirib keladi. O'z navbatida xalifalik hukmronligi davrida hindlarning

madaniyatiga arablarning ham ta'siri o'tadi. Ba'zi hind shoirlaridan Abu Ota as Saidiy va ibn al Arabiylar arab tilida ijod qiladilar. Grek adabiyotining ta'siri unchalik katta emas edi. Grek tilidan asosan falsafa, tibbiyot, astronomiya to'g'risidagi adabiyotlar tarjima qilinar edi.

Arablar hayotiga boshqa halqlarning kirib kelishi, ular o'rtasidagi eski qabilaviy aloqalarning susayishi, hokimiyat tepasiga arablar bilan bir qatorda eron feodal aristokratiyasining kelishi o'zaro siyosiy tortishuvlarga chek qo'ygan bo'lib, bu esa o'z navbatida siyosiy she'riyatning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Natijada she'riyatda asosan lirik va falsafiy ma'nodagi asarlar binoga kela boshlaydi.

Garchi Qur'on musulmonlarga sharob ichishni taqiqlagan bo'lsada, Bag'dodda abbosiylar davrida ko'pchilik sharobxo'rlikka berilib ketgan edi. Bunday muhit albatta zamonaviy adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Abbosiylar davrining eng yirik shoirlaridan biri Abu Nuvas (762-813) bo'lib, uning she'rlari asosan sharobga, sharobni ta'riflashga bag'ishlangan edi.

“May, sharob” to'g'risidagi she'riyat bilan bir qatorda abbosiylar davrida dunyoviy ishlarning barchasidan o'zini tiyish, hayotni emas, balki o'limni kuylovchi shoirlar oqimi ham yuzaga kela boshlaydi. Abul Ataxiy (784 – 825) ana shunday shoirlardan biridir.

shoir o'z ijodining ilk davrlarida asosan muhabbat to'g'risidagi she'rlarni ijod qilgan bo'lsada, bora-bora uning asarlarida tushkunlik uchqunlari ko'rina boshlaydi. Uning yozishicha baxtsizlik va qiyinchiliklarga to'la real hayotdan ko'ra, u dunyodagi ya'ni o'limdan keyingi hayot bizga ko'proq baxt keltirishini ta'riflab yozadi.

Al Mutanabbiy (965y vafot etgan) ham shu ushbu oqim shoirlaridan biri edi. Uning she'rlarida o'lim va o'lim bilan bog'liq voqealar to'g'risida yozib va bu o'z navbatida o'quvchida tushkun kayfiyat paydo qilar edi.

Lekin o'z zamondoshlarining ijodidan farqli o'laroq, al Mutanabbiy o'limdan keyingi hayotga ishonmas, o'z zamonasidagi hayotni esa o'z asarlarida keskin tanqid ostiga olar edi: “Men bu davr odamlarini la'natlayman”.

Abbosiylar davrida proza chunki bu davrda hech narsani bilmaydigan odam – olim, ziyarak va zukko odam– telba, olijanob odam esa – itdir, eng rahmdil – sherdek, jasur esa - qo‘rqoq xuddi maymundek”. YUqori cho‘qqilarga ko‘tarildi. Notiqlik san'ati o‘z kuchini yo‘qotib, uning o‘rniga yangicha prozaik asarlar – hikoyalar, romanlar dunyoga kela boshlaydi. Fors, grek, hind tilidan tarjima qilingan asarlar ko‘paya boshladi.

Hind – eron ertaklaridan iborat - “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna” - (ruslarda “Stefanita va Ixnilota” nomi bilan ma'lum bo‘lib, bunday nomni vizantiyaliklar berishgan) eposi ana shu sa'yi harakatlar natijasida bizning davrgacha etib kelgan. sharq xalqlarining, ayniqsa, fors, turk va hind adabiyotining rivojlanishiga arab adabiyotinig ta'siri juda katta bo‘lgan.

V. MODDIY MADANIYATNING RAVNAQ TOPISHI : ME'MORCHILIK, SAN'AT VA MUSIQA

Arab xalifaligi davridagi masjidlar madaniy binolarning ko'pchiligini tashkil qilardi. Musulmonlarning eng muqaddas joyi – Ka'ba sanalar va shuning uchun ham masjidlar ham Makkaga qaragan holda qurilar edi. Masjidning eng katta qismi – bu namoz o'qiladigan zal bo'lib, u asosan to'rtburchak yoki kvadrat shaklida bo'lar edi. Odatda masjidning Makkaga qaragan devorida mehrob, mehrobning oldida esa Qur'on tilovat qilish va ma'ruzalar o'qish uchun kafedra qo'yilardi. Masjidning yana ko'kalamzor katta hovlisi bo'lib, u erda namozxonlar quyosh nuridan saqlanib dam olishardi. Hovlida albatta muzdek suvi bilan hovuz yoki favvora ham bo'lardi. Nihoyat, har bir masjidda bir yoki bir necha minorasi mavjud bo'lib, undan har kuni muazzin besh mahal namozxonlarini namoz vaqti bo'lganligi haqida xabar berib – azon chaqiradi. Hayit kunlari minoralar chiroqlar bilan yoritilib go'zal bir manzarani kashf qiladi. Minora so'zi – “mayoq”, “yorug' minora” degan ma'noni anglatadi. Eng birinchi masjid binosi Muhammad payg'ambarimiz davrida ustun palmadan, tomlari esa palma barglaridan iborat qilib Makkada qurilgan. Masjid o'zining soddaligi bilan ajralib turardi. Validning xalifalik davrida masjid marmar, oltin, kumushlar bilan bezatilib to'rtburchak shaklida qilib qayta quriladi⁵.

Bosqinchilik urushlari boshlangan davrda arab musulmonlari o'zga erlarni bosib olib, mahalliy tarixiy obidalarini o'z maqsadlari uchun ishlata boshlaydilar. Bir tom ostida ko'pincha masjid va xristian cherkovi ham joylashgan bo'laverardi. Damashqda esa musulmonlar Ivan cho'qintirgan soborini egallab

⁵ Марковой А. Н. Культурология. История мировой культуры: Учебник для вузов / под ред. Проф. А. Н. Марковой. – 2-е изд., стереотип. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008

oladilar. Keyinchalik uning o'rnida ummaviylarning mashhur masjidlaridan biri barpo qilinadi. Biroq, janubiy darvozada XX asrning boshlarida ham grek yozuvlarini bemalol o'qisa bo'lardi.

Xalifalik tuzilib bo'lishi bilanoq, arablar arxitekturada Vizantiya, Kont va Sosanid elementlarini ishlatgan holda masjidlar qurishni boshlab yuboradilar.

Misrni ishg'ol qilib bo'lgandan so'ng esa Fustatda xalifalikning harbiy boshlig'i Umar ibn al Asaning buyrug'iga binoan kopt me'morlari tomonidan xalifalik davrining eng qadimiy masjidlaridan biri – Amir masjidi (641 y) quriladi. Masjidda minoralar va gumbazlari yo'q edi. Bunday muxtasham masjid hech qanday bezaklarsiz bo'lsa-da, o'zining sig'imi va kattaligi ajralib turadi. Bundan tashqari masjid o'zining zarvorli ustunlari bilan va kengligi bilan ham insonda katta ta'surot qoldiradi.

Ibn Tulunning qadimiy Qohira masjidi (885 y) qaysidir jihatlari bilan Amir masjidini eslatga-da, biroq uning devorlari va shifti gullar va barglarga o'xshash bezaklar bilan bezatilgan edi. Derazalar esa geometrik shakldagi chiroyli toshlar va panjaralar bilan bezatilgan edi. Hovli o'rtasidagi hovuz esa qubba bilan yopilgan.

Ilk musulmon me'morchiligida o'zining hashamatliligi va qiziqarli arxitekturasi bilan Kubban as Saxr ("CHO'qqa qubbasi") masjidi alohida ajralib turadi. Masjid eraizdan avvalgi 70-yillarda rimliklar tomonidan vayron qilingan Iruossalimdagi iudeylarning Solomon ibodatxonasi o'rniga VII asr oxirlarida Abdul Malikning xalifaligi davrida qurilgan. Masjid to'g'ri sakkizburchakdan iborat. Masjid tomonlari salobatli ustunlar va qubbalardan iborat. Ulrada o'sha davr nafasi ufurib turardi. Masjidning "Qoya gumbazi" deylishiga sabab uning o'rtasida ulkan tosh yotadi. Xuddi shu tosh ustida Ibrohim alayhissalm xudo yo'liga o'z o'g'lini qurbonlikka tayorlagan deyiladi. Masjining ark, qubbalari va devorlaridagi ajoyib geometrik shakldagi mozaikalar va gullar va tilla suvi bilan bezalgan bo'lib, hozirgi davrga qadar ham o'z tarovatini yo'otmay saqlanib kelingandir.

Abbosiylar poytaxti bo'lgan Samarradan hech qancha uzoq bo'lmagna joyda IX asrda qurilgan masjidning xarobalari saqlanib qolgan. Uning yonida esa samoga intilayotgan ulkan tosh spiralini eslatadigan minora salobat bilan turardi.

Dunyoviy arxitektura yodgorliklaridan esa bizning davrgacha birortasi ham saqlanib qolmagan. Mshat qal'asi VII – VIII asrlarda Iordaniyada qurilgan. Qurilishni xalifa Valid II boshlagan bo'lib, uning vafotdan keyin qurilish tashlab yuborilgan va vayron bo'lgan. Qarbiy evropalik arxeologlar bu joylarda qazish ishlarini olib borishgan va boy naqshlar bilan bezatilgan masjidning old qismini Berlinga olib ketib qolingan. Muvaggar va Kusayr –Amir (IX asr) qal'alari ham o'z navbatida xuddi yuqoridagi qal'a kabi mashhur bo'lgan.

Kusayr Amirning devorlari har – xil yozuvlar bilan bezatilgan. Arablarning kundalik hayotlarini tasvirlovchi devordagi rasmlarni esa noma'lum biroq iste'dodli rassom chizganligi ayondir.

Bu ishlarni ummaviylar davrida yollangan suriyalik yoki grek rassomlar chizishgan deb taxmin qilinadi. Devorning oltita portretlari ayniqsa qiziqish uyg'otadi. Ularning bittasi xalifaning portreti edi. Ko'rinishlarning birida sher bilan yovvoyi eshakning o'zaro jangi ifodalangan. Kusayr Amirning zallaridan birida esa ayollarning va sozandalarning siymolari aks ettirilgan.

shu erda o'rinli bir savol tug'iladi: Musulmon tasviriy san'at bilan shug'ullanishi mumkinmidi? Axir Qur'on ta'limoti bo'yicha jonli narsalar tasvirlash ta'qiqlangan emasmi? Qur'on ta'limoti bo'yicha tirik mavjudotlarni chizish mumkin emas deb uqtirilganligi uchun ham arablar tasviriy san'at bilan shug'ullanish mutlaqo yot bir narsa edi.

Qur'onda bunday yozilgan edi: “sharob ichish, qimor o'yinlar va haykallar – shaytonning vasvasalardandir. Sizlar bulardan saqlaninglar va sizlar baxtli bo'lasizlar!”.

Hadislarda ham “Kimki jonli narsani ifoda qilsa unga baxtsizlik bo'lsin! Qiyomatda ularni chizgan rassomga rasmlardan chiqib jonlarimizni topib ber, deb da'vo qiladilar. O'sha payt rassom jon topib bera olmay qolganda uni abadiy alangada yoqadilar!”.

Lekin o'sha davrdagi ta'qiqlarga qaramasdan ham arab xalifaligining birinchi asrlarida rassomlar jonli narsalarni chizadilar. Ierusalimdagi Abdul Malik

xalifaligi davrida eng katta masjidlarning biri devorlarida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni, do'zax va jannatni tasvirlagan rasmlar ham mavjud edi.

Tulun sulolasidan bo'lgan Misr hukmdorlaridan biri oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan o'zining portreti, xotinlari va o'yinchilarining qomatlarini tilla bilan bo'yalgan rasmlari bilan saroyini bezattirgan.

Qohira saroylaridan birida esa portretlar uchun alohida ayvon qurilib, unga shoirlarning portretlarini o'rnatirishgan. Har bir portretning ostiga o'sha shoirning eng yaxshi she'ralardan misralar yozilgan lavhalar osib qo'yidgan.

Bizning davrgacha musulmonlar tasviriy san'ati namunalaridan juda ham kam saqlanib qolingan.

Miniatyura sharq halqlarining, xususan arablarning tasviriy san'ati to'g'risida biz miniatyura san'ati orqali tushuncha hosil qilamiz. Miniatyura – bu arablarda ayniqsa, forslarda kitoblarda chizilgaks ettirilgan voqea – hodiasalarni ifoda etgan lavhalardir. Miniatyura san'ati asosan Eronda gullab – yashnagan. Arablarda ham undan-da gullab yashnagan.

Arab miniatyurasi Basra va Kufada taxminan IX asrda paydo bo'lgan. Biroq bizgacha birortasi ham etib kelmagan. shuning uchun ham olimlar o'sha davr miniatyurasi to'g'risida faqat tarixiy manbaalardan ya'ni tarixiy yozilib ketilgan yozuvlardangina tanish bo'lishgan. Ilk miniatyuralar VIII asrda paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Odatda miniatyurachi rassom dastavval agat va xrustal tuxum bilan tekislangan qog'ozga ramni suv bo'yoqlarda tushirgan. Faqat shundan keyingina quyuq bo'yoqni surkashgan.

Jahon madaniyati taraqqiyoti tarixida sharqiy Arabiston xalqlari san'atining ham muhim o'rni bor. Xaliflikning (Suriya, Misr, Falastin, shimoliy Afrika. Eron, O'rta Osiyo, Janubiy Afrika) ko'pgina shaharlarida rivojlangan O'rta asr arab madaniyati insonlarning progressiv rivojlanishida YAngi bir bosqich bo'ldi. sharqiy Arabiston xalqlarining asosiy xizmati shundan iborat bo'ldiki, ular keyingi avlodlarga antik grek – rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgna holda etkazib keldilar. IX – XII asrlar davomida YAqin va O'rta sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va O'rta Osiyo xalqlari bir-biri bilan uzviy aloqada

bo‘lib kelganlar. Bag‘dod, sheoz, Tabriz, Samarqand kabi shaharlar madaniyati va tarqqiyotining markazi bo‘lib, o‘zlarining ko‘zga ko‘ringan olimlari, shoirilari, hamda fan va madaniyat o‘choqlari bilan butun dunyoda tanilgan edilar. Tasviriy san'atning rivojlanishida tirik jonzotni tasvirlashni man etgan islom dini ma'lum darajada to'sqinlik qiladi. Ammo bu qarshiliklar san'atning umumiy tarqqiyotini buka olmaydi. Mana shu ta'qiqlangan ishlar natijasida sharqiy Arabiston mamlakatlarida tasviriy san'atning rivojlanishi birmuncha qiyin kechadi. Uning o‘rnini esa qo‘lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar ya'ni miniatyura san'ati egallaydi. Miniaturani yuzaga kelishida rivojlanish arab tilida badiiy adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimdan ilmu – ma'rifat manbai sifatida yuksak qadrlaganidan dalolat beradi. Miniatyura, kalligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo‘lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ elementlaridan birini tashkil qilar edi. miniatyuraning asosiy ahamiyati tekst mazmunini tushuntirish va umuman olganda dunyoviy xarakterga ega asarlarni bezashdan iborat edi. asosan proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronialar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan. Ular orasida “Kalila va Dimna” hikoyalari, grek Dioskritning “Farmokologiya”, Rashididdinning “Jom'e-at- tavorixi” asarlari bor edi.

Arab miniatyura san'atida kitob bezakchiligini ravnaq topishi

O‘rta asr musulmonlarining qadimgi qo‘lyozmalari faqatgina guash bo‘yoqlar bilan ishlangan. Bu bo‘yoqlarni tayyyorlash usuli YAqin sharqqa VIII asrda O‘rta Osiy orqali Xitoydan kirib kelgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez – tez sodir bo‘lib turgan bosqinchilik urushlari tufayli ilk arab miniatyuralari deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha etib kelmagan arab miniatyurachilarining asarlari ko‘p emas.

Hozirgi vaqtga kelib, arab miniatyuralarini o‘rganuvchi olim va mutaxassislar, qo‘lyozmalarni bezashni uchta davri va regional badiiy markazi mavjud ekanin e'tirof etadilar. Bular fotimiylar sulolasi (IX – X – XI) Suriya (XII asrning birinchi yarmi) va Iroq (yoki Bag‘dod) XII asr miniatyura maktablaridir. Bularning markazlari - Ma'sul, Bag‘dod va Vosit shaharlarida bo‘lgan.

shartlilik va dekorativlik prinsiplarii asosida qo‘rilgan o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan arab miniatyuralari O‘rta asr sharq rang tasviri sifatida o‘zining

takrorlanmas obrazli badiiy tiliga egadir. Miniaturaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tasvirning sath yuzadaligidadir. Bu xususiyat qo'lyozmaning dekorativ uslub (serhasham ziynatlar), shams, lavhalar, zarvaraq va boshqa bezaklari kabi kitobning ziynatlar, uning tuzilishi xarakteridan kelib chiqqan.

Bizga ma'lum bo'lganlik arab miniaturalar fotimiylar sulolasi davrida ishlangan bo'lib, XI asrga taalluqlikdir. Ohorlangan qog'ozga ishlangan odamlar qiyofasi hatti – harakatlari sodda va yaxlit tasvirlangan.

Qo'lyozmalardagi rasmlar, manzara tasviri yoki me'morchilik ko'rinishlari bilan boyitilgan. kishilar qiyofasining tasvirida tabiiylikka intilingan. Kiyimlarning buklanganligi tasvirlangan. Arab kitob bezakchiligining ravnaq topishi davrini Iroq maktabi miniaturachilari boshlab berdi. Miniaturalar ham boshqa asarlardagi kabi, tekstni tushuntirib berilgan uslubda lo'nda qilib tasvirlangan.

Miniatura aniq kontura bilan ko'rsatilga va yorqin bo'yoqlarda bo'yalgan katta figuralar va predmetlar aniq ko'rinib turgan tekstlar orasidagi sariq fonda aks etgan.

Arab miniaturisining o'ziga xos uslubi iroq maktabining eng ajoyib asarlaridan biri al Xaririyning Abu Said as – Sarujdi (o'rta asrdagi Nasriddin Afandining prototipi)ning boshidan kechirganlarini tasvirlab beruvchi "maqom" asariga ishlangan illyustratsiyalaridir. Undagi personajlarning xilma –xilligi odamni lol qoldiradi. Bular bozordagi sotuvchilar, masjiddagi namozxonlar, dorixonadagi ko'rinishlardan iborat. shodiyona ziyofatlar, qabul marosimlari, afsonaviy voqealar, hayvonlarning ajoyib tasvirlari, hayotiy voqealarning butun real borliqni rassom turli harakatlar orqali chizgan. O'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan hovlilar, go'yo bu hovlilarning devori olib tshlangan-u, tomoshabin uning ichini ko'rib turganday. Manzaralarni tasvirlashda esa ko'm – ko'k yashnab turgan o'tloq tasviri tushirilgan uncha baland bo'lmagan teraklarni al Xaririy asarida ko'rish mumkin.

Ba'zi bir xil miniaturalarda biz arab rasomlarining bitta kenglikda rang – barang kiyim – kechak va boshqa kiyimlari bilan ajralib turgan personajlarni katta bir guruh sifatida tasvirlashga uringanliklarini sezamiz.

Bunga misol qilib ibn Maxmudning “Bayram sayli” miniatyurasini ko‘rishimiz mumkin. Bu miniatyuralarda bayroqlar ko‘tarib olgan otliqlarning do‘mbira, karnay chalib, bayram shodiyonasi boshlanganligidan xabar berishayotganligi aks ettirilgan.

Arab miniatyura san'ati jahon madaniyati san'ati tarixida miniatyura san'ati va kitob bezakchiligini rivojlantirishda butun dunyoga tanilgan edilar.

Qo‘lyozmalar yanada chiroyli va o‘qimishli chiqishi uchun miniatyurachidan tashqari yana bir odam ishlov berardi-ki ularni hattotlar deb atalardi. Hattotlarning mehnatlari sharq xalqlari orasida juda qadrlanardi. Chunki ular o‘zlarining o‘ta go‘zal husnixatlari bilan kitobga o‘zgacha chiroy va ifor bag‘ishlar edilar. O‘sha davr adabiyotlarida me'morlar, rassomlar, ganchkor ustalar to‘g‘risida yozilmasada, biroq hattotlar va ularning san'atlarini maqtab juda ham ko‘p yozilardi. Arab hattotlik san'atiga mohir rassom Ar Rayhoniyy (834y o‘lgan) va Mugla (886 – 940yy))lar asos solgan. Mugla abbosiy davrida vazir bo‘lib xizmat qilgan. Xalifa al Roziy uning qandaydir gunohi uchun uning o‘ng qo‘lini kestirib yuboradi, lekin u chap qo‘li bilan ham juda chiroyli yozar edi.

Abbosiylar davrida davlat poytaxti Bag‘dod shahrida juda ko‘p do‘konlar bo‘lib ularda hattotlar juda ko‘plab sondagi kitoblarni qo‘lyozma qilib yozardilar.

Arab tarixiy manbaalarida VII –X asrdagi ajoyib matolar, gilamlar, metaldan yasalgan buyumlar to‘g‘risida juda ko‘p qiziqarli ma'lumotlar bizning davrgacha etib kelgan bo‘lsada, ammo o‘sha buyum va matolarning o‘zlar juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Saqlanib qolganlarini esa qaysi davrdan ekanligini aniqlash juda mushkul ish bo‘lgan.

shunday bo‘lsada, yana bizga shu narsa ham ma'lumki, to‘quvchilik san'ati arablarda musulmon dunyosi paydo bo‘lmasdan avval paydo bo‘lganligi sir emas. Arablar bayram kunlarida Ka'bani bezash uchun qimmatbaho matolarni olib kelardilar. XII asrga kelib esa Ka'baning ichki va tashqi tomonlari juda kshp yozuvlar bilan bezatilgan.

VIII asrdayoq Damashq va Aleppoda matolar ayniqsa ipak matolar savdosi juda keng yoyilgna edi. Makrizining asarlarida zangori matoga qizil qushlarni oyoqlari va kallasini tilladan qilib to‘qilgan.

Boshqa davlatlar ya'ni Osiyo va Afrika bilan o‘zaro aoqalari natijasida arablarning amaliy san'ati ham o‘sha davlat lar matolaridagi elementlar kirib keladi. Arablar Kont to‘quvchilaridan geometrik shakldagi motivlarni, naqshlarni esa Sosanid hunarmandalaridan namunalar olib matolarni bezashar edi. Matolarni bezash san'ati asosan fetimidlar davrida yanada rivojlanib ravnaq topadi.

sharq gilamlarining ajoyibligi to‘g‘risida kim ham eshitmagan deysiz. Bu gilamlarning dovrug‘i butun dunyoga yoyilgan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Gilamlar – sharqning faxri va boyligi. Tarixiy manbaalardagi ma'lumotlarga tayanib arablar gilam to‘qishni XIII asrdan bir muncha avval bolab yuborganligini anglab olamiz.temirchilik esa undan ham avval rivojlanganligini tarixiy manbaalar tasdiqlab turibdi.

VII – VIII asrlarda idishlarni kumushdan yaasb ishlatilardi, biroq diniy ta'limot kumush idishlardan foydalanishni ta'qiqlagani sabab kumushni bronzaga almashtiriladi.

Arab yog‘och o‘ymakorlarining ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Necha bir masjidlardagi eshiklarni, mehroblarni, usutnlarni ular o‘zlarining nozik didlari bilan go‘zal nqshlar bilan bezaganlar. Arab amaliy san'ati namoyondalari bo‘lgan kashtachilar, zardo‘zlar, etikdo‘zlar esa qanchadan – qancha noyob buyumalr yaratganligini aytib o‘tishni lozim deb topdik.

XULOSA

Biz tarixi necha ming yillarni qamrab olgan buyuk xalqimiz. Ulug' ajdodlarimiz asrlar davomida siyosat, ilmu fan va madaniyat, dinu diyonat sohasida dunyoni xayratga soladigan ulkan ishlarni amalga oshirib kelaganlar. Vatanimiz istiqloli ana shunday an'ana va qadriyatlarimizni tiklash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallash imkonini bergani uchun ham benixoya aziz va qadrlidir¹.

Biz yuqoridagi manbaalarga tayangan holda shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, jahon sivilizatsiyasida arab madaniyatining salmoqli hissasi borligi va u hoh u adabiyot bo'ladimi, hoh u matematika yoki fizika bo'ladimi, hoh u astronomiya yoki tibbiyot bo'ladimi, qo'yingchi fan va madaniyatning qaysi tarmog'i bo'lishidan qat'iy nazar arablarning ta'siri juda kuchli bo'lganligini his qilishimiz mumkin. G'arb mamlakatlari Sitsiliya va Venetsiya davlatlari arxitekturasida yoki bo'lmasa, Florensiya va Lukka matolarida arablarning o'ziga xos bo'lgan naqshlari va gullaridan ustalik bilan foydalanganliklariga guvoh bo'lamiz.

Ma'lumki, tarixda payg'ambarlik ijtimoiy va siyosiy hayotga ta'sir eta oladigan katta salohiyat sifatida xalqlar va mamlakatlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Buni Injildagi Isay, Ieremiya va boshqalarning oldingi payg'ambardardan farqli yakkaxudolik, ijtimoiy tartibot g'oyalarini ilgari surganligida, xamda ko'pgina ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlarni boshlab berganida ko'rish mumkin.

Arablar muhitidan kelib chiqqan islom dini mintaqaning eng qadimgi tub joy axolisi xisoblangan islom sivilizatsiyasi semit etnosining qo'xna tarixi bilan bog'liq.

Ilmiy xolislik zaminida turuvchi tadqiqotlar islom dini kelib chiqishining shart-sharoitlari to'g'risida gap borganda semitlarning YAqin sharq

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Т: Шарқ, 1998

sivilizatsiyasida o'ziga xos ijobiy o'rin tutganligini ob'ektiv ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ular orasidan chiqqan akkadiylar, amoreylar, xoldeylarning Mesopatamiya va umuman, butun g'arbiy Osiyo sivilizatsiyaviy rivojlanishidagi o'rni fanda ma'lum. Islom dini Arabiston yarim orolida, hususan, uning janubida qadimgi sivilizatsiyaviy zaminda paydo bo'ldi.

Yangi dinning kelib chiqishi omillaridan biri yana shu bo'ldiki, Arabistonda VII asr boshlarida yangi xudo va haqiqatni topishga, intilgan ko'pgina xanifa-targ'ibotchilar bo'lgan edi. Ulardan biri va eng qobiliyatlisi bo'lgan Muxammad yagona, qodir, mehribon va rahmdil Allohga itoat qilish, u ko'rsatgan yo'ldan chiqmaslik, adolatpeshalik qadriyatlarini targ'ib qilib, rasululloh, ya'ni xudoning elchisi darajasiga ko'tarildi. U arablarni birlikka chaqirdi. Xalq esa oxir — oqibatda Muxammad dinini qabul qildi. Bu bilan yangi bir jaxoniy sivilizatsiyaning poydevori toshi qo'yildi. Bu din avval boshdan yozma manbasiga — barcha musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan — qur'onga ega.

Islom dini barcha musulmonlarni o'zaro birodar deb xisoblaydi. Uning xar bir e'tiqod etuvchi uchun oddiy va. bajarilishi qat'i bo'lgan, yakka xudolikka asoslangan qoidalari dindorlarni haqiqiy jannatga erishishiga ishontirgan. Musulmon dini qaror topishi bilan bu dinga tayangan davlat xam, maydonga keldi. Uning boshida dastlab payg'ambarning o'zi, so'ngra ketma-ket dastlabki to'rt halifa turdilar. Ulardan keyin diniy va siyosiy xokimiyat Muoviylar sulolasi qo'lida 100 yilcha bo'ldi. 750 yilda xalifaning hokimiyatiga Abbosiylar sulolasi keldi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. “sharq”., 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T. “Ma'naviyat”., 2008y.
3. Karimov I., Olloh qalbimizda, yuragimizda, T., 1999
4. Apresyan. R.G, Botvinnik B.A. i dr.. Kulturologiya: uchebnik dlya vuzov; pod red. B.A. Erengross. – M.: Izdatelstvo Oniks, 2007. – 480 s.
5. Vasilev L.S. «Istoriya religiy Vostoka». Uchebnoe posobie dlya vuzov. – 4-e izd. – M.: «Knizhnyy dom «Universitet», 1999g. s.111 – 121
6. Gryunebaum G.E. Klassicheskiy islam. M., 1988
7. Grinenko G.V. Xrestomatiya po istorii mirovoy kultury. M.: - Piter, 2004. – 245
8. Eryshev A.A. «Religiovedenie». – K.: MAUP, 1999g. – s.165 – 172, 176 – 179
9. Igpattko A.L. V poiskax schastya. M., 1989
10. Komilov N., Tasavvuf, T., 1999
11. Markovoy A. N. Kulturologiya. Istoriya mirovoy kultury: Uchebnik dlya vuzov / pod red. Prof. A. N. Markovoy. – 2-e izd., stereotip. – M.: YUNITI-DANA, 2008. – 600 s
12. Mets L. Musulmanskiy Renessans. M., 1966
13. Maykl Kin «Religii mira». – Xarkov: «Klub semeynogo dosuga», 2003. – s.147 – 154, 161 – 174.
14. Xusseyin M. Edinaya osnova gumanizma // Kurer YUNESKO. 1992
15. Hasanov A., Qadimgi Arabiston va ilk islom (1-kitob: Johiliya asri), T., 2001
16. Sufizm v kontekste musulmanskoj kultury. M.. 1989.
17. «Akademicheskoe religiovedenie». Uchebnik. Pod redaksiyey professora A.Kolodnogo. – K.: «Mir znaniy» 2000. – s.379 – 385.
18. Kulturologiya. Istoriya mirovoy kultury: uchebnik dlya vuzov/Pod red. prof. A.N. Markova. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Kultura i sport, YUNITI, 1998. – 600s:

Internet resurslar

1. Dostijeniya nauki srednevekovogo Vostoka – Rejim dostupa: <http://nplit.ru/books/item/st010.shtml>

2. Istorija nauki arabo-musulmanskogo mira v muzee pri Frankfurtskom universitete – Rejim dostupa: http://www.islam.ru/culture/istona_nauki/
3. Kak islamskiy mir poluchil i poteryal pervenstvo v nauke. – Rejim dostupa: <http://historic.ru/news/item/....>